

М.ҚАҲҲОРОВА, О.ХАСАНОВА, З.ПОЗИЛОВА

ГРАММАТИКАНИ ЎРГАНИШ ВА ЎРГАТИШ

Фарғона - 2013

“Грамматикани ўрганиш ва ўргатиш” номли ўқув қўлланма олий ўқув юр்தларининг ўқитувчилари, академик лицей, касб-ҳунар коллеж-лари ва умумий ўрта таълим мактабларининг хорижий тил ўқитувчиларига мўлжалланган.

Масъул муҳаррир: Г.Розиқова - ф.ф.н.

Такризчилар: п.ф.н. Б.Латинов;
ўқитувчи И.Дехқонов.

Ушбу “Грамматикани ўрганиш ва ўргатиш” номли ўқув қўлланма Фарғона давлат университети илмий Кенгашининг 8-йиғилиши қарори асосида нашр этилди.

Kirish.

Grammatika didaktikasiga bag'ishlangan seminarlardan birida Germaniyalik va boshqa mamlakatlardan kelgan o'quvchi va o'qituvchilarga (tayyorgarliksiz) nemis tilidagi sifatlarning qo'shimchalar jadvalini doskaga yozib berish topshirig'i berildi. Germaniyalik ishtirokchilarga bu topshiriq anchagina qiyinchilik tug'dirdi. Ular dastlab bir necha soniya sifatlarga misollar qidirishlariga to'g'ri keldi. Shundan keyingina ular sifatlarning turlanishi jadvalini doskaga yoza oldilar. Chet mamlakatlardan qatnashayotgan ishtirokchilark esa buni qiyinchiliksiz, xattoki misollarni qidirishga vaqt sarflab o'tirmasdan bajarishdi. Ular Germaniyalik ishtirokchilarga ham yordam berib turdilar. Ular quyidagicha ko'rinishda sifatlarning turlanishini yozishdi. (heisser Kaffee, heissen Kaffees, heisse**m** Kaffee, va boshqalar.)

Ammo shunday seminarlarning yana birida chet mamlakatlardan kelgan ishtirokchilar bunday tizimni tuzishda qiynalmadilar. Ammo sifat qo'shimchalarining qo'llanishida bir qator xatolarga yo'l qo'ydilar.

Buni tushintirib bera olasizmi? O'zingiz hamshunga o'xshash voqeani boshdan kechirganmisiz?

Germaniyalik ishtirokchilarning sifat qo'shimchalarini amaliy jarayonda qo'llashda xatolarga yo'l qo'ymasliklari tabiiy hol.

Ammo uning kompleks jadvali ularning ko'z o'ngida doimiy turmaydi. Chet mamlakatlardan kelgan ishtirokchilar esa bu tizimni juda ko'p ko'rganlar va Grammatik mashqlar bilan buni mustahkamlaganlar. Misolimiz ko'rsatadiki, qoidani og'zaki aytib berish, unga doir mashqlarni to'g'ri bajarish bir taraf bo'lsa, qoidani suhbat jarayonida to'g'ri qo'llay olish turli hil tayyorgarlik hisoblanar ekan.

1.1. Til o'rganuvchilar va til o'rgatuvchilar o'zlarining grammatika darslariga qanday baho beradilar?

Sitatalar.....

1. “Agar men grammatikani tushuntirishni boshlasam, o`quvchilarim tinch bo`lib qolishadi va hammalari mening gaplarimni diqqat bilan tinglashadi.” (O`qituvchi)
2. “Bizning darsligimizdagi grammatika qandaydir bir tizimga solinmagandek. U odamda hech qanday tasavvur uyg`otmaydi. Ammo afsuski,bizda boshqa hech narsa yo`.” (o`qituvchi ayol)
3. “Darslikdagi mashqlar unchalik ham muammo, qiyinchilik tug`dirmaydi, o`quvchilar ularni to`g`ri tushunadilar, ammo keyinchalik xuddi shunday ish bajarilsa, o`quvchilar yana xatoga yo`l qo`yadilar. ” (o`qituvchi)
4. “Hamisha bir xil mashqlar. Bu bizlar uchun allaqachon zerikarli holatga aylangan. Ammo shunga qaramay biz grammatikani o`rganishimiz kerak. “ (o`quvchi)

Baholash. Agar chet til o`qituvchilaridan yoki chet tilini o`rganayotgan o`quvchilardan chet tili darsida grammatikaning qanday rol o`ynashi haqidagi fikrlari so`ralsa, ko`pincha ulardan bir hil javobni eshitish mumkinligini bilsangiz kerak.Ular chet tilini o`rganish va o`rgatishda grammatikaning rolini muhim deb hisoblaydilar, aslida ham shunday. Grammatikasiz til – buni tasavvur qilish qiyin bo`lsa kerak. Darslik esa Grammatik ma'lumotlar keltirilgan va unga doir mashqlarni topish mumkin bo`lgan birdan-bir va muhim manbaa hisoblanadi.

O`tgan asrda yaratilgan, ayniqsa grammatik tarjima metodi asosida yozilgan darsliklar bilan ishlagan ko`p o`qituvchilarning o`zlari foydalanayotgan darsliklardan norozi bo`lganliklari haqidagi fikrlarni ko`p uchratish mumkin. Ko`pincha ularga qoidalarining tanlangan tasvir ketma-ketligi mantiqsizday tuyiladi. Deyarli har doim kerakli mashqlarning yetishmasligi haqidagi shikoyatlarini eshitish mumkin.

Bu qo`llanmaning maqsadlaridan biri ham aynan darsliklarni ko`rgazmali va mashq fazalarini o`zgarishlarga boy qilishga ko`maklashishdir. Ba`zan buni birozgina tayyorgarlik va harajat bilan amalga oshirish hammumkin bo`ladi.

Chet tildidaktikasi bilan shug'ullanuvchi Gyunter Zimmermann ham o'zining ko'pkitoblari va maqolalarida grammatika darsining nazariyasi va amaliyotini o'rganishga katta ahamiyat bergan va turli so'rovlar op'tkazib turgan. So'rovlaridan birida esa quyidagicha natijalarni aniqlagan. Bular asosan grammatikani o'rganish va o'rgatishdagi muammolardir.

So'rovda sizni qiynaydigan muammolarga ham to'xtalib o'tilgan ekanmi? Yoki sizning muammolaringiz boshqachami?

Biz hozir bir lahza bo'lsa ham grammatika xususida suhbatlashdik, ammo "grammatika" tushunchasini aynan qanday ta'riflash mumkinligi haqida bir qarorga kelganimiz yo'q. Shuning uchun ham quyida bir necha sitatalar hamda ta'riflashga urinishlarni keltirib o'tmoqchimiz.

1.2. Grammatika aslida nima degani?

Tophiriq – 1.

Quyidagi tasvirlashlarni o'qib chiqing! "Grammatika" qanday ma'noni bildirishi haqida o'ylab ko'ring!

A)

Yana grammatikangni uyda unutib qoldirdingmi?

B)

Ha, oxirgi testdan keyin grammatikangni kallangda yaxshi saqlayapsanmi?

C)

Bu kitobdagi grammatikani hech ham tushuna olmayapman.

D)

Kelgusi testda 4 – bo'limdagi grammatika xususida gap boradi!

E)

Men hamisha shu ko'k grammatikadan foydalanaman.

F)

Sen allaqachon juda yaxshi gapiryapsan, ammo sening grammatikang hali ham xatolarga boy.

Gaplarni tartiblang. Qaysi gap, qaysi ifodaga to'g'ri keladi?

1. Bu yerda egallangan Grammatik bilim haqida gap ketyapti.
2. Bu yerda ehtimol qo'shimcha adabiyot hisoblanadigan Helbig/Buschalarning grammatikasi haqida gap yuritilyapti.
3. Bu yerda dars jarayonida qo'llanilgan aniq bir grammatik-qoida haqida so'z ketyapti.
4. Bu yerda ham qo'shimcha adabiyot, ya'ni darsni uyda mustahkamlash uchun qo'llanadigan adabiyot haqida fikr yuritilyapti.
5. Bu yerda "grammatika" tushunchasi darslikdagi umumiy qoidalar tasvirini ko'rsatyapti.

A/ , B/ , C/ , D/ , E/ , F/ .

"Grammatika" ni qaysi tushuncha sifatida o'zingiz va o'quvchilaringiz ko'proq qo'llaysizlar?

Biz bu yerda grammatika tushunchasini tilshunoslik nuqtai nazaridan tasvirlab bermoqchi emasmiz. Bu kitobda grammatika tushunchalari o'rtasidagi oddiygina farqlar ko'rsatiladi.

Ta'rif: Grammatika.

Helbig (1981) "Grammatika" tushunchasini qo'llashdagi farqlarni ko'rsatib beradi. U grammatikani uch hil ma'noda qo'llash mumkin ekanligini ko'rsatib o'tadi. Xususan u A, B va C grammatika xususida so'z yuritadi.

A-na'muna.

Die deutsche Grammatik kommt mir komplizierter vor als die englische.

Menga nemis tili grammatikasi ingliz tili grammatikasidan murakkabroq tuyuladi.

A grammatika biror tilning umumiy qoidalar tizimi haqida gap ketmoqda. Uning nomlanishi va tasvirlanishi tilshunoslikka bog'liq bo'lmaydi.

B-na'muna.

Ich habe mir die neue Duden – Grammatik gekauft,

Men o`zimga yangi Duden – grammatika sotib oldim.

Qoidalar tizimining tilshunoslikka doir tasviri, uning aks etishi tilshunoslik orqali bo`lib, B grammatika sifatida ko`rsatiladi.

“Grammatika” bu yerda bir model sifatida faraz qilinadi, xuddi tilshunoslikka oid belgilar sistemasidek. Tilshunoslik turli xil belgilar modellarini rivojlantirgan. Ularning ba’zi birlari chet til darsliklarida ham qo`llaniladi.

C-na`muna,

Seine Intonation ist gut, aber seine Grammatik ist sehr fehlerhaft.


Uning gapirish ohangi yaxshi, ammo uning grammatikasi juda ham xatolarga boy.

C grammatika deganda qoidalar tizimi nazarda tutiladi, bu grammatika til o`rganuvchilar tomonidan til darslarida tizimli holatda o`zlashtiriladi yoki chet til darslarisiz tizimga solinmagan holda egallanadi.

Bu ta`rifni “kalladagi grammatika” deb faraz qilishimiz mumkin. Birinchi kuzatuvni yodingizga keltiring. Bu kuzatuv olib borilganda talabalar yaxshi Grammatik bilimga ega bo`lganlar. Shunday bo`lishiga qaramay ularning ko`pchiligi tizimni aniq tasvirlab bera olmaganlar.

Asosiy farqlar shunchalik keng. B grammatikada Helbig yana bir narsani aniqroq farqlab bergan. U bu yerda qoidalar va strukturalarning tasviri qanday maqsadga hizmat qilishi haqida savol qo`ygan. B grammatika – bu lingvistikasosga tayangan grammatikadir. Bu grammatikani u B<sub>1</sub> grammatika sifatida ko`rsatadi. Agar til o`rganuvchilar maktab darsliklaridagi qoidalar va strukturalarni tasvirlashi haqida gap ketsa, Helbig B<sub>2</sub> grammatika haqida so`z yuritadi. Ya`ni didaktik va pedagogik grammatika haqida. Bu tushunchalar fan adabiyotlarida ko`pincha sinonim sifatida qo`llanadi. Bu yerda yana “til o`rganuvchilar grammatikasi” degan tushuncha ham uchray turadi. U B₂ grammatikaning bir ko`rinishi singaridir.

Bu ta'rifni grafik tarzda quyidagicha tasvirlashimiz mumkin:



haqida fikr yuritmoqchimiz. Biz o'ylaymizki, eng yaxshi yo'l, qoidalar tasvirida didaktik savollar qo'yish bilngina cheklanib qolmay, butun dars jarayoni haqida so'z yuritish kerak. Bular qatoriga qoidalarni taqsimlash, tasvirlar va grammatikani darsda taqdim qilishni kiritishimiz mumkin.

Bu qo'llanmada pedagogik grammatika haqida ko'proq gapiriladi. Uning ta'rificha grammatik tasvir, bu

- Dastlab pedagogik savol qo'yiladi, bu esa savolni qo'yishda o'quvchilarning bilimi, ehtiyoji va xoxish-istaklari hisobga olinadi

degani. Aynan mana shu asosga tayanib qoidalar tanlanadi va tasvirlanadi.

- o`qish, yozish, eshitish va so`zlashishda chet tilida albatta yordam kerak bo`ladi, ammo u darsning maqsadiga aylanib qolmasligi kerak.
- Lingvistik grammatikaga qarshi o`laroq, bu yerda har qanday holatda ham qoidalarining yoki to`liq sistemalarining tasvirlanishi va bayon qilinishi zarur emas. Balki qoidalarining yoki biron tizimning aynan qo`llash maqsad qilingan, kerak bo`lgan qismi tanlab olinishi va tasvirlanishi mumkin.
- ...qoidalar va strukturalarni taqdim qilishda lingvistikadan tashqari bo`lgan vositalar ham ishtirok etadi. Masalan: rasmlar. Ular qoidalarini o`zlashtirish va yodda saqlab qolishda vositachilik qiladi.

Qisqacha qilib aytganda, bu qo`llanmada Grammatika xususida fikr yuritiladi. Ammo u chet tili darsning maqsadi emas, balki maqsadga eltuvchi, unga yetish uchun xizmat qiluvchi vosita sifatida tushuniladi. U til o`rganuvchilarga grammatikani o`rganishda yordamga keladi.

Shunga qo`shimcha sifatida bir darslik muallifidan 2 ta sitata keltirib o`tmoqchimiz. U o`quvchilar uchun lingvistikva pedagogik grammatikaning o`rtasidagi farqlarni jadval tarzida ko`rsatib bergan.

Lingvistik grammatika	O`quvchilar grammatikasi
Mufassallik (Qoidalarda mustasno holatlarning ayniqsa muhimligi)	Tanlov
Mavhumlik (tasvir/ifoda)	Aniqlik/ko`rgazmalilik (tasvirlash/aks ettirish)
Qisqalik (tasvirlash)	Mufassallik (muhim deb hisoblangan elementlarni tasvirlash)
O`rganuvchilarning o`rganishdagi psixologik qobiliyatlariga bo`lgan	O`rganishdagi psixologik kategoriyalar: - Tushunarlilik

e'tiborsizlik	- Yodda saqlash - Qo'llay olish
---------------	------------------------------------

Schmidt (1990)

2. Darslikdagi grammatika – darsdagi grammatika.

2.1. Darslikdagi grammatika.

Grammatik qoidalar tasviri deyarli har bir darslikda shakl va qamrov jihatidan turlichadir. Ba'zi darslik mualliflari ma'lumbir Grammatik mavzuga ko'p joy ajratsalar, yana ba'zi birlari bunday mavzularni faqat Grammatik jadvallarda berish bilangina kifoyalanadilar. Bu ma'lumotning o'ziyoq grammatika taqdimotining hamma tomonidan to'g'ri deb topilgan shakli yo'q ekanini ko'rsatib turibdi.

Biz shuning uchun ham zaruratga ko'ra 4 ta darslikning mundarijalarini 1-sahifasinikeltirib o'tmoqchimiz.

Inhaltsverzeichnis und Stoffplan

Abschnitt	Texte	Sprachstoff
	Die Landkarte, S. 13	
1	In der Schule, S. 17 Wir lernen Deutsch, S. 19	Der Artikel, S. 20 Das Verb, Präsens, S. 21 Das Verb <i>sein</i> , S. 22 Personalpronomen, S. 23 Verb + Adjektiv, S. 24
2	Im Klassenzimmer, S. 26 Der Unterricht, S. 27 Das Alphabet, S. 32 Die Silben, S. 32	Das Nomen (Substantiv), S. 28 Singular und Plural, S. 28 Der Akkusativ, S. 29 Fragepronomen, S. 30 Das Verb <i>haben</i> , S. 31 Der Imperativ, S. 32
3	Haben Sie genug Geld?, S. 35 Die Zahlen, S. 37 Was möchten Sie bitte?, S. 37 Die Zeit, S. 40	Der Satz, S. 38 Die Zahlen, S. 39
4	Eine Bahnfahrt, S. 43 Eine Reise, S. 44 Tag – Monat – Jahr, S. 49	Das Verb, S. 45 Präsens der starken Verben Vorsilbe und Verb, S. 47 Wortstellung, S. 48 Präpositionen <i>in, nach, bis, über, von</i> , S. 49 Negation, S. 50
5	Herr und Frau Braun haben Besuch, S. 52 Ein Freund kommt, S. 53 Herr und Frau Braun begrüßen ihren Gast, S. 54 Unsere Familie, S. 58	Das Nomen, S. 55 Der Dativ S. 55 Das Fragepronomen <i>wem?</i> , S. 55 Possessivpronomen, S. 57

2 – topshiriq.

a) Bu mundarija tushunarli, qamrovlimi?

Bu kitobdagi dastlabki uzun topshiriq hisoblanadi. Agar savollar yuzasidan muammoga duch kelsangiz, “baholash” qismida, quyida savollaringizga javob topishingiz mumkin.

This image shows a blank sheet of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.

Baholash. Qismlarda zaruratga qarab, Matnlar va til materiallari keltrilgan. “Matnlar” kategoriyasi ostida shunchaki oddiy sarlavhalar roʻyhati keltirilgan. Baʼzan fikr yuritilayotgan mavzuga yoʻriqnoma berib ketilgan. Ammo soʻzlar maydoni (Tag – Monat – Jahr) va mazmunan

grammatika darsiga mos tushadigan (Alphabet, Silben)larni ham aynan shu ustundan topamiz.

“Til materiallari” ustunida esa faqat Grammatik belgilar keltirilgan. Bu ustun qo`ng`ir rangda. Bu qo`ng`ir rangli fondan darslikning asosiy o`quv mazmunini shu yerdan topishga ishora berilganini bilib olishimiz mumkin.

3 – topshiriq.

Qolgan uch mundarijani ham shunday yo`l bilan tadqiq qiling.

2 – na`muna

INHALTSVERZEICHNIS	
1 Wer ist das?	4
2 Im Studio	10
3 Was sind Sie?	16
4 Im Supermarkt	22
Test 1	27
5 Im Restaurant	28
6 Entschuldigen Sie, bitte	34
7 Mein Wagen ist kaputt	40
8 Fräulein Heim telefoniert	46
Test 2	52
9 Können Sie uns mitnehmen?	54
10 Früher war alles anders	60
11 Wann kommen sie denn endlich?	66
12 Tut uns schrecklich leid!	72
Test 3	78
13 Und wo schlafe ich?	80
14 Gar nicht so einfach	86
15 Das Geschenk	92
16 Kurze Unterbrechung	98
Test 4	104
17 Wo waren Sie denn?	106
18 Zimmer gesucht	112
19 Der Olympiapark	118
20 Finden Sie das richtig?	124
Test 5	130
21 Im Konzert	132
22 Haben Sie ein Hobby?	138
23 Ein Besuch im Deutschen Museum	144
24 Was würden Sie tun, wenn Sie Politiker wären?	150
Das Alphabet	156
Die Uhrzeit	156
Deutsches Geld	157
Liste der Verben	158
Wortschatzregister	163
Bildteil	169
Karte der deutschsprachigen Länder	Umschlagseite 2
Karte von Europa	Umschlagseite 3

3-na'muna.

Inhaltsverzeichnis

Kapitel	Grammatik	Redeintentionen	Themen
1 Seite 1–9	Präsens Nominativ: Nomen und Pronomen Der Hauptsatz: einige Satzbaupläne	trinken bitten, danken grüßen bestellen	Getränke
2 Seite 10–24	Zahlen bestimmter und unbestimmter Artikel Adjektiv im Prädikat, Adjektiv beim Nomen Singular und Plural	kaufen: wählen, nachfragen, zahlen	Markt Laden
3 Seite 25–39	Präsens: Verben auf -ieren Verben auf -ten, sein Frage und Antwort	persönliches Interview: fragen, antworten (Beruf, Wohnung, Studium)	Personalien Lesetext: Privatbrief
4 Seite 40–55	Modalpartikel auch, gern Negation ja – nein – doch Ja-Nein-Frage, W-Fragen: einige Satzbaupläne	zum Mitmachen auffordern, einladen	Freizeit
5 Seite 56–68	Akkusativ: Nomen und Pronomen	verlangen, ablehnen, bestellen	Mahlzeit
6 Seite 69–89	negativer Artikel (kein) Possessivum (mein) Präsens: haben Adjektiv im Prädikat, Adjektiv beim Nomen	Urteil über Sachen und Personen artikulieren auf Ausfragen reagieren	Besitz
7 Seite 90–107	Modalverben möchten, können, müssen, wollen, dürfen	Unterkunft suchen, beurteilen frei/besetzt erlaubt/verboten	Hotel Untermiete Lesetext: Berufswahl
8 Seite 108–130	Demonstrativum (dieser) woher? wo? wohin? Präsens: starke und schwache Verben Uhrzeiten: offizieller Gebrauch		Verkehr Lesetext: Europa

[illegible]

Inhaltsverzeichnis

Kapitel 1 7

● Verständigungsbereiche (Notionen)

Identität von Personen: Name, Adresse, Telefonnummer, Beruf, Alter, Nationalität/Herkunftsland

● Intentionen

Begrüßen, Vorstellen, Namen erfragen, Bitte um Wiederholung/Buchstabieren

● Situationen

Internationales Treffen, Anmeldung, Deutschkurs

Texte und kommunikative Aufgaben

- 1 Wer ist das? 7
- 2 Guten Tag, ich heiße Bauer / Das ist Frau Barbieri aus Italien 8
- 3 Wie schreibt man das? Buchstabieren Sie bitte! 10
- 4 Herr Dupont kommt aus Frankreich 12

Kapitel 2 14

● Verständigungsbereiche (Notionen)

Identität von Personen: Wohnort, Herkunftsland/-ort, Nationalität, Mutter- und Fremdsprachen; Familienstand; Beruf/ Studium/Tätigkeit, Arbeitgeber

Quantität: Zahlen

● Intentionen

Nach dem Befinden fragen; nach Herkunft/Sprachkenntnissen fragen; jemanden einladen, etwas bestellen; Gefühle/Wunschvorstellungen ausdrücken

● Situationen

Im Lokal, Telefonauskunft

A Texte und kommunikative Aufgaben

- A1 Wie geht's? / Sprechen Sie Englisch? / Was trinken Sie? 14
- A2 Wer hat die Nummer ...? 16
- A3 Bitte die Nummer von ... (Telefonauskunft) 16
- A4 Barış Önal ist Arbeiter (Ausländer in der Bundesrepublik Deutschland und in Berlin (West)) 18
- A5 Deutsch als Muttersprache / Deutsch als Fremdsprache 20

B Grammatik und grammatische Übungen

- B1 Der Satz 21
- B2 Die Satzteile: Verb und Nominativergänzung (Subjekt) 21
- B3 Das Verb 22
- B4 Die Konjugation: Präsens (1) 22
- B5 Die Satzarten: Aussage, Frage (Wortfrage / Satzfrage), Aufforderung: Imperativ (1) 23
- Übungen Ü1 bis Ü10 25

Kapitel 3 28

● Verständigungsbereiche (Notionen)

Identität von Sachen: Schulzimmer-Einrichtung; Lebensmittel, Speisen/Getränke

Quantität: Zahlen, Gewichte

● Intentionen

Benennungen erfragen und angeben, Vermutungen/Nichtwissen ausdrücken; Beschuldigen, Begründen, Rechtfertigen; sich erkundigen/vergewissern; Überraschung ausdrücken; zu gemeinsamem Handeln auffordern, etwas vorschlagen, zu etwas raten, Einwendungen machen; Einladen, Annehmen, Ablehnen

● Situationen

Im Klassenzimmer, beim Angeln, im Lebensmittelgeschäft, am Kiosk, im Restaurant, beim Picknick

A Texte und kommunikative Aufgaben

- A1 Wie heißt das? (Internationale Wörter im Deutschen) 28
- A2 Wie heißt das auf deutsch? 29
- A3 Haben Sie einen Angelschein? – Nein, wir haben keinen 30
- A4 Haben Sie Oliven? – Nein, heute nicht 32
- A5 Die Miete ist sehr hoch 33
- A6 Nehmen wir zwei Hamburger und eine Flasche Bier? 34
- A7 Was nehmen Sie? 36
- A8 Das Picknick 37
- A9 Rocko 38

B Grammatik und grammatische Übungen

- B1 Das Genus 39
- B2 Der unbestimmte Artikel – der bestimmte Artikel 39
- B3 Fragen: Personen und Sachen 40
- B4 Die Deklination: Nominativ und Akkusativ 40
- B5 Die Konjugation: Präsens (2) 41
- B6 „ein-“ – „kein-“ 42
- Übungen Ü1 bis Ü9 43

Baholash. Biz yuqoridagi mundarijalarni qisqacha quyidagicha xarakterladik. Endi siz ularning qaysi biri, qaysi mundarijaga tegishli ekanini o`ylab ko`ring va belgilang!

1. Bu mundarija uchta kategoriyaning o`z ichiga oladi va shuning uchun ham qolgan ikkita na`munadan ajralib turadi. Grammatika birinchi o`rinda keltirilgan. Alohida ifodalar misollar orqali bayon qilingan. (Negativer Artikel - nein). Bundan tashqari “nutq intonatsiyasi” va “mavzular” mavjud. Bu bilan mundarija mufassal va informatsiyaga boy bo`lib tuyuldi.
2. Mundarija 2 ta ustun va 5 ta kategoriyadan iborat. Chap ustun ta`lim maqsadi haqidagi umumiy ma`lumotlarni o`zida mujassam etgan. O`ng ustunda esa darslikning aniq sahifalari keltirilgan bo`lib, unda matn sarlavhasi, matn va bo`limdan sitatalar keltirilgan. Bundan tashqari Grammatik strukturalar va unga doir mashqlar bor. Bu bilan tadqiq qilinayotgan na`munaning detallashtirilganligiga amin bo`lishimiz mumkin. Bunda muhimi qanday qilib mundarijaning tushunarlilikiga putur yetkazmaslikka harakat qilingan.
3. Bu mundarija grammatika haqidagi ma`lumotlarni o`z ichiga olmagan. Berilgan sarlavhalar biron jarayonni (Supermarketda) yoki turli hodisalarni nomlarini o`z ichiga olgan. Oxirgi holatda esa bo`limning mazmunini tushunish imkoniyati juda ham oz. Mundarijaning ma`noli qismi aytarli yo`q desa ham bo`laveradi.

Tartiblashni topa oldingizmi? Unda na`munalar bilan ularni moslab chiqing!

2 – na`muna:

3 – na`muna:

4 – na`muna:

Misollarshu qadar ko`p. Ishonamanki, hozir siz ham o`zingiz eng yaxshi tanigan darslikning mundarijasi haqida o`ylayapsiz! Chunkibu darslikdan siz

4- topshiriq.

A: Bu mundarijani qolgan 4 ta na'muna bilan taqqoslang! Qayerda nimani o'zgartirish kerak? Siz nimani qanday tartiblagan bo'lar edingiz?

B: Quydagicha tajriba o'tkazing! Yana bir bor o'zingizga tanish darslikning biror bo'limini tanlab oling, hamda unga o'zingiz mustaqil ravishda mundarija tuzib chiqing!

This image shows a single sheet of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.

C: So`nga o`zingiz tuzgan mundarijani natijasini asli bilan taqqoslang! Qaysi versiya sizga ko`proq yoqdi?

2.2. Darsdagi grammatika: o`qituvchilar – o`quvchilar – darsliklar.

Mundarijalarni taqqoslash bilan biz sizlarga darsliklar va dars jarayonidagi Grammatik topshiriq uchun berilgan na'munalar bilan yanada aniqroq ishlay olishga nazar solmoqchi edik. Quyida biz bir darslikdan olingan topshiriqni keltirib o'tmoqchimiz, sizlar esa bu na'munaga o'z munosabatlaringizni bildirishingiz kerak. Topshiriq varaqasini o`qib chiqing va undan so`ng darslikdan olingan na'munani o`qib chiqing!

5 – topshiriq.

Topshiriq varaqasi.

Darslik va darsni tadqiq qilish uchun quyidagilarni amalga oshirishingiz mumkin:

A: darslik uchun.

1. Bo`limning o`quv maqsadi nima? U muallif tomonidan aytib o`tilganmi?
2. Qanday matnlar taqdim qilingan (Dialoglar / o`qish uchun matnlar/ boshqalar.)
3. Qanday Grammatik qoidalar va strukturalar keltrilgan?
4. Grammatik strukturalar qaysi jarayon/mazmun bilan bog`langan?
5. Struktura va qoidalar qanday qilib til o`rganuvchilar va o`qituvchilar uchun qulay qilib berilgan?
6. Zaruratga qarab aynan bir Grammatik mavzu uchun qancha miqdorda mashqlar keltirilgan?
7. Aynan qanday mashqlar ma'lum bir Grammatik bilimni chuqurlashtirishni talab qiladi va unga yordam beradi?

B: darsga

- [illegible]

2. Mulohazalar.

Bu qismda kishilik olmoshlarining 2-va 3-shaxs tushum kelishigi keltirib o`tilgan. Bu imkoniyatdan foydalanib, avval o`rganilgan fe'llarni hamtakrorlang. Ular Akkusativ/ jo`nalish kelishigi bilan qo`llanadigan fe'llar bo'lsin! Modal fe'llarni ham olishimiz mumkin. Bu bo`limda o`quvchilar uchun yangilik “duerfen” modal fe'li hisoblanadi. Bu yerda uni ustida qayta ishlash uchun turk tili taklif etilgan. Biz bunda quyidagi farqlarni aniq ko`rishimiz mumkin bo`ladi:

Koennen= qila olmoq, u uchrashganlarga bog`liq holda qo`llangan.

Duerfen= boshqalar, masalan ota-onaning bu narsaga ruhsat berishi; ruhsat berilgan.

Ich kann Fussball spielen= men fudbolo`ynay oladigan holatdaman.

Ich darf Fussball spielen= Men fudbol o`ynashim mumkin.

d) punktiga: bu qism “ich treffe dich” ham 3-shaxs birlikni ifodalaydi ham “sie treffen mich ”ni o`z ichiga oladi.

Bu qismda siz so`z tartibuini o`zgarishini ham mashq qilishingiz mumkin.

Ich treffe euch morgen.

Morgen treffe ich euch.

3. Mashqlar uchun g`oyalar:

aa) U yana kimni taklif qiladi?

U amakisini ham taklif qiladi.

Wen laedt er noch ein?

Er laedt auch seinen Onkel ein.

Stimullar: seinen Freund, seine Tante, seinen Bruder. Seine Lehrerin, seinen Lehrer, seine Schwester, seine Mutter, seinen Vater

ab) Biz qachon uyda ko`rishishimiz mumkin?

Biz soat 3 da aniq uyda bo`lamiz.

Stimullar: boshqa paytlar, vaqtlar.

Baholash. Bu bo`limda xuddi „duerfen“ va „koennen“

Ergash gapli qo'shma gapning so'roq so'zlar bilan va "weil" bog'lovchisi bilan bog'lanishi quyidagicha bayon qilingan. So'ngra esa uni ustida ishlangan.

Skaner

7-topshiriq.

Darslikni qanday tahlil qilish mumkinligi haqida yuqorida keltirilgan fikrlarni yana bir bor o'qib chiqing. Quyida keltirilayotgan na'munani baholang. Maqsad "dass"li ergash gapli qo'shma gaplarni taqdim qilish.

Skaner.

Baholash. Matnda birinchi shaxsda avtomobil yo'li nazorati haqida habar berilyapti.(sodir etilgan ko'ngilsiz hodisa va avtomobilni o'g'irlash.) Kim bu yerda nima sababdan xabar beryapti, bunisi aytilmagan. Matn o'z ichiga bir necha ergash gapli qo'shma gaplarning na'munalarini qamrab olgan. Keyingi qatorda bu misollar bilan qoida tasvirlanadi. (1. dass bosh kelishik uchun, 2. dass tushumkelishigi uchun. 3. dass ko'makchili ifoda uchun) dass ergash gapli qo'shma gaplar matnning mavzusi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishga ega emas."Der Strassenverkehr" mavzusini xoxlagan mavzu bilan almashtirish mumkin.

So'ngra qoidani anglash uchun 2 ta mashq keltiriladi.ergash gapli qo'shma gapning tuzilishi boshqa turli ergash gaplar o'rgatilganda mufassal o'rgatilgan. 6-va 7-mashqlar o'quvchilarni kuchli boshqaradi. Dastlab ular oldinda keltirilgan qoidaga ko'ra ergash gapli qo'shma gaplar tuzishlari (6-mashq),keyin esa ikkita bosh gapni bir bosh va bir ergash gapga aylantirishlari kerak bo'ladi. Mashqlar qoidani tushunish uchun yordam beradi va uni to'g'ri qo'llashni talab qiladi.

O`quvchilar bu savolga javob topish haqida o`ylagunlarigacha, gapdan gapga konteks mazmunan o`zgarib boradi.

Tizimlashtirish.

Sizlarning ham quyidagi dars tuzilmasini tanishingizga ishonchimiz komil. Bunday dars tuzilmasi Grammatik-tarjima- metodi asosida yozilgan darsliklar uchun hosdir.

Kontekstlashtirilgan misollar
(grammatika matnlarda “yashiringan” bo`ladi)



Bayon qilish bilan cheklangan misollar
(misollar matndan olinadi)



Strukturaning bayon qilinishi
(qoidalar ma'lum shaklga solinadi va kelajakda qo'llash uchun maslahatlar beriladi)



Qoidani mashqlarda qo'llash
(qoidalar mashqlarni ishlash davomida mustahkamlanadi)

Ko`pincha yakuniy qismda qoidani qo'llab ko`rish uchun ona tilidan chet tiliga tarjima qilish hamtalab etiladi. Shuning uchun hambu metod Grammatik-tarjima-metodi degan nomni olgan. Biz hozir tadqiq qilmoqchi bo`lgan darsligimizda esa holat bunday emas.

Sizning amaliy darslaringiz uchun maslahat: bu metod asosida yozilgan tanib olish uchun undagi mashqlarga nazar tashlash kifoya. “Uebungstypologie zum kommunikativen Deutschunterricht ” (1981.Neuner) kitobida Grammatik-tarjima-metodi asosida yozilgan darsliklardagi mashqlarga quyidagicha xarakteristika beriladi.

Sitata:

Grammatik-tarjima-metodidagi mashq tiplari:

- qoidaga ko`ra tuzilgan to`g`ri gaplar (qoidani qo`llash)
- to`g`ri shakllarni qo`shish (bo`shliqli matnlar)
- formal Grammatik kategoriyalardan gaplarni boshqa shakllarga o`zgartirish (masalan, aniq nisbatdagi gapni majhul nisbatdagi gapga aylantirish)
- tarjima qilish: ona tilidan nemis tiliga, nemis tilidan ona tiliga.

Bu metodga xos bo`lgan mashqlar shakllari taxminan shunday bo`lgan bo`lar edi.

- so dass ni qatnashtirib gaplar tuzing.
- fe'llarning perfekt shakllarini toping.
- Kesimning qismlarini to`g`ri joyiga keltiring.
- Savollar tuzing va boshqalar.

8-topshiriq.

Taqqoslang. O`zingiz foydalanayotgan yoki yaxshi biladigan chet tili dasrligida hamshunga o`xshash mashqlar bormi? Ulardan ba`zilarini ko`chirib yozing!

Bunday shakl va mazmunga ega boʻlgan mashqlar bir qator savollar keltirib chiqaradi. Oʻquvchilar haqiqatan ham bunday mashqlar bilan yangi Grammatik strukturani oʻrgana oladilarmi? Ulardan foydalanish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelmaydilarmi? Hamma mashq shakllari shunday boʻlishi kerakmi? Izolatsiyalangan yakka misollar bilan qoidani tushunish mumkinmi? Ularni mavzuviy aloqadorlikda oʻrgatsa yoki oʻrgansa boʻlmaydimi? Buning uchun boshqacharoq yoʻl yoʻqmi? Va boshqalar.

Quyidagi misoldan bunday shakldagi mashq naʼmunalari qanday muammolar keltirib chiqarishini bilib olishimiz mumkin:

Avvallarimashhur boʻlgan va juda keng yoyilgan, aynan Grammatik-tarjima-metodi asosida yozilgan darslikdan olingan “Passiv” mavzusi uchun tanlangan mashqlarni olishimiz mumkin.

Naʼmuna: Quyidagi gaplardan majhul nisbatdagi gaplar tuzing. Zamonlarga eʼtibor bering. (Xozirgi zamon, Oʻtgan zamon, oʻtgan zamon hikoya shakli, kelasi zamon.)

Germaniyalik va chet ellik oʻqituvchilar ishtirok etgan seminarlardan birida ishtirokchilarga shu mashqning 18-gapini shaklga solish buyurildi. Gap esa quyidagicha edi:

Er hat es sicher nicht machen koennen.

Tinchlik. Urinib koʻrishlar. **Es hat sicher nicht gemacht warden koennen.** Xitoylik nemis tili oʻqituvchisi bu gapni birinchi urinishdayoq toʻgʻri shaklga keltirdi.

Mashqning 15-(Ihr wollt sie sicher gern in Ruhe lassen.) va 13-(Du hast sie ihm vorstellen sollen.) gaplari ishtirokchilarga anchagina muammo tug'dirdi.

Misol uchun keltirilgan gap shuni ko'rsatadiki, agarda Grammatik struktura yaxshi egallangan bo'lsa, bu bilan germanniyalik ishtirokchilardan ham o'zib ketish mumkin bo'lar ekan. Agar hamma o'qituvchi ham doimo tayyorlanib turmasa, uni mashqdagi hamma gaplarda qo'llay olmas ekan. Agar gapnikontestsiz oladigan bo'lsak, bunday gapni qanday joyda qo'llash mumkinligini tushuntirmasak, uni kelajakda qo'llash qiyin kechadi. Aynan shu narsalar o'quvchilarga qiyinchiliklar tug'diradi.

Xulosa qilib bu metodning darsliklarini quyidagicha tasvirlash mumkin. Tavsif. Asosiy o'quv maqsadi doimo til sistemasi haqida bilim berish bo'lib qolavergan. O'quvchilar qoidalarini ta'riflab berishlari va uni qo'llay olishlari kerak bo'lgan. Imtihonlarning ham maqsadi o'quvchilarning grammatikbilimlarini sinovdan o'tkazish bo'lgan. Agar o'quvchi Grammatik qoidalarini bilsa, demak u tilni o'zlashtirgan hisoblangan. Bo'limning boshida yangi struktura bironmatn bilan aloqadorlikda qo'llangan. Yakunda esa u qoida tizimining bir qismi sifatida taqdim etilgan va bayon qilingan. Undan keyin esa mashqlar keltirilgan.

Bu metod darsliklarining umumiy tomonlari ko'p. Ammo albatta farqli tomonlari ham yo'q emas. Ular hamma narsadan ham ko'ra quyidagi sabablardan kelib chiqqan.

- turli xil tashkiliy sabablar va nemis tili darslarining turli xil mamlakatlar sharoitiga qarab tashkillanishi;
- turli xil texnik sabablar va darsliklarni, kitoblarni ishlab chiqarishdagi ba'zi bir muammolar;
- individual faktorlar, masalan muallifning "qo'l yozmasi"

Grammatikaning taqdimoti va mashq shakllari darsning borishini oldindan amaliy belgilab beradi.

Ko'p tajribalardan kelib chiqib bunday darsning izchilligidagi ijobiyva salbiy tomonlarni quyidagicha tasvirlash mumkin.

O'quvchilar mavhum, tashqi tilmuhitida grammatika bilan juda yaxshiilgarilab boradilar. Balki o'quvchilar bularni ona tilida o'tgan darslaridayoq o'zlashtirib ulgurgandirlar, balki shunday kognitiv ishlash ularning mamlakatidagi o'qish va o'rganish an'analariga va madaniyatlariga to'g'ri kelar. Boshqa fanlarni shunday tez va tizimli o'rganayotgan o'quvchilar, endi bu metod bilan ishlaganda kamdan-kam muammoga duch keladilar. Ular bu chet tilning til tizimini o'rganishda yaxshi natijalar ko'rsatadilar. Bundan ham ko'proq bu metod yangi Grammatik ma'lumotlarni taqqoslash va tartiblashda yordam beradi. O'quvchilar har qanday vaqtda ham darsning maqsadini biladilar. Ular o'zlaridan nima kutilayotganini yaxshi anglaydilar, ya'ni Grammatik jihatdan to'g'ri gaplar tuza olish.

Shunday keng, shunday yaxshi. Ammo o'quvchilar biroz kognitiv o'quv an'analariga, biroz boshqacharoq madaniy qobilyat va imkoniyatlarga ega bo'lishsachi? Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, har bir gapdan oldin qoida qayta-qayta ishlansa, darsning maqsadi faqat qoida haqidagi bilimni shakllantirish bo'lsa, bunday o'quv jarayonining muvaffaqiyati yaxshi bo'lmaydi, aksincha salbiy natijalar keltirib chiqaradi. Ular nimanidir xato bajarib qo'yishdan qo'rqadialr.Bu bilan guruhning ichida qiynaladilar. Ko'p savollarga javob bermay ovoz chiqarmay o'tiradilar. Chunki ular yuqorida aytib o'tganimizdek, qoida uchun faqat bir misol bilan cheklanib qolganlar. Bu ularning faqat bir xil javob berishlariga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, agar kimbu metod bilan chet tilini o'rgansa, faqatgina qoidalarni bilish bilangina cheklanib qoladi. Ularning qo'lidan birozgina chet tilida gapirish kelishi mumkin. Ammo juda yaxshi qoidalarni bilish va kundalik suhbat jarayonining o'zidayoq juda ko'p xatolarga yo'l qo'yish holati achinarlidir. Agar kimda kim tilni bu usul bilan o'rgangan bo'lsa, darslikdagi matnlarni hamo'rgangan bol'adi. Ammo ularni ma'no jihatidan baholay olmaydi va ualrni "yashirin" grammatikadan qidira boshlaydi. Bu o'quv jarayonining salbiy

psixologik jihat: o`quvchilarning doimiy bosim ostida ish qilishi, unchalik hammuvaffaqiyatli bo`lmagan model bilan “kitobning tili” o`rganishidir. Bunday vaziyatda o`quvchilar tashabbus ko`rsatishdan cheklanadilar. Bu tilni o`rganishdan qoniqish hosil qilmaydigan, bu sohada juda kuchsiz bo`lgan, juda ko`p xatoga yo`l qo`yadigan o`quvchilarga bunday tizimda joy yo`q. Agar bu metod yordamida juda yaxshi natijalarga erishgan odamlar haqida eshitgan bo`lsangiz, bilingki, ular maktab davrida juda yaxshi o`qigan o`quvchilar bo`ladi. Chunki kuchsiz o`quvchilarning bu metod bilan tilorganishlari juda hamqiyin masala.

Albatta qolgan metodlar asosida yaratilgan darsliklar yordamida grammatikani, umuman chet tilini o`rgatish va o`rganishda shunga o`xshash o`quv muammolari mavjud. Ularni ham quyida tasvirlab o`tamiz.

3.2. Grammatikasiz tilni o`rganish audiolingval va audiovisual metodlar darsliklari.

Siz bu metodlar orasidagi farqlarni yaxshiroq taqqoslay olishingiz uchun, bu metod darsliklaridan ham “dass” ergash gapli qo`shma gaplarni tanlab oldik. 3.1. bo`limdagi ma`lumotlarni quyidagi ishlar bilan taqqoslab ko`rishingiz mumkin.

9-topshiriq.

1967-yil Braun K. tomonidan nemis tilini chet tili sifatida o`rganish uchun mo`ljallangan darsligidan olingan quyidagi misolni ko`zdan kechiring.

Dastlab tanlangan mavzular doirasini taqqoalab chiqing. So`ngra matn turlarini (gazetadan olingan maqola, xabar yoki dialog) va darslikning bu bo`limida matn yoki dialoglarda qanday yozuv usulidan foydalanilganligini belgilang.

(rasmiy yoki kundalik so`zlashuv uslubi)

Skaner

Baholash.

3.1. bo`limdagi “Der Strassenverkehr” matnida “men” shaxsida hikoya qilingan. Matnda o`zaro aloqadorlik kam.

“Beim Arzt” matni esa dialog shaklida berilgan. Ularni hikoya qilib ketish uchun 4 ta rasm keltirilgan. Har bir rasimga kirish soʻzi berilgan. Ergash gapli qoʻshma gap uchun keltirilgan naʼmuna “Beim Arzt” matnida ham doimiy zaruriy emas. Baʼzida u biroz kulguli ham tuyuladi. (masalan. Wir werden sehen, dass...) Albatta shifokor huzurida “dass” ergash gapli qoʻshma gapni doim qoʻllash mantiqsizday tuyuladi. Chunki tana aʼzolarini tasvirlash yoki biron aʼzoni ogʻriq bezovta qilayotganini aynan “dass” ergash gapli qoʻshma gap bilan ifodalash shart emas.

10-topshiriq.

Oldingi varaqlarni yana bir bor koʻrib chiqing. 5-topshiriqdagi ish varaqasini koʻzdan kechiring. Bu misolni asosan quyidagilar boʻyicha tahlil qiling: 7(oldingi egallangan bilim), 8 (oʻquvchilar faoliyati), 9 (oʻqituvchining faoliyati) va 10 (dars bosqichlari).

Skaner

Grammatik-tarjima-metodi asosida yozilgan va audiolingval/audiovisual metodlar asosida yozilgan darsliklardan olingan misollar orasida 2 ta asosiy farq koʻzga tashlanadi. Ularni quyidagicha umumlashtirish mumkin. Matn turlarining tanlanishi va mashq shakllari. Bu yerda dialog shakli olingan boʻlsa, u yerda guvohi boʻlganimizdek muallif hikoyasi edi. Mashq koʻrsatmalarida Grammatik atamalar qoʻllanilmagan. Bu narsani tushunish darslikda keltirilgan naʼmunani tushunishdan koʻra osonroq. Avval keltirilgan misollar oʻquvchilarga yordam beradi. Bu yoʻl bilan oʻquvchilar gap naʼmunalarini turli variantlarini topishlari mumkin. Qoidani taʼriflab berish shart emas. Yuqorida keltirib oʻtilgan “Uebungstypologie zum kommunikativen Deutschunterricht ” (1981.Neuner) kitobida audiolingval metodning mashq turlarini quyidagicha taʼriflangan:

- pattern drills (koʻp variantlarda)
- gap uchun doskalar

- o`quvchilarning o`zlaridan olingan mashqlar
- to`ldirilishi kerak bo`lgan mashqlar
- rasimli, topshiriqli mashqlar, dialog mashqlar.
- Dialog sahnalarini qayta ishlash va ijro etish.
- Shaklni o`zgartirish mashqari.
- Alohida elementlardan gaplar tuzish.

11-topshiriq.

Endi sizda Grammatik-tarjima-metodi va audiolingval/audiovisual metodlar asosida yozilgan darsliklardagi mashqlarning turlari keltirilgan ro`yhat bor. Bularni endi o`zingiz qo`llayotgan yoki yaxshi bilgan darsliklarni ko`zdan kechirish asnosida ko`rib chiqing va taqqoslang. Qaysi mashq turlari bu darslikda ustunlik qilyapti? Darslikdagi mashqlarning barchasini aynan ma`lum bir metodga tegishli deb aytish mumkinmi?

Har ikkala tadqiq etilgan darsliklar o`rtasidagi tafovutlar tasodifiy emas. Ular 60-yillarda psixologiya, pedagogika va tilshunoslik sohalarida ro`y bergan o`zgarishlar mahsulidir, bu boradagi o`zgarishlar chet til o`qitish metolariga ham o`zining ta`siriniko`rsatgan.

Metodlar tarixini yaxshi bilishni istasangiz, ular haqidagi mufassal ma`lumotlar Gerhard Neuner va Hans Hunfeldning “Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts” kitobida keltirib o`tilgan. Biz bu yerda

juda ham qisqa ma'lumotlarni keltirib o'tdik. Agar sizda amaliy grammatika darsiga qiziqish katta bo'lsa, quyidagi ekskursiyani ham o'qib chiqishingizni tavsiya qilamiz:

Nazariy ekskursiya:

Audiolingval/audiovisual metodlar darsliklarining asoslari.

Xuddi yuqorida keltirib o'tilgan na'munalarimizdek, audiolingval/audiovisual metod darsliklarida til o'rganuvchilarning gapirish qobiliyatini shakllantirishda dialoglar eng markaziy o'rinda turgan. Bunday metodlar asosida yozilgan darsliklarda uchraydigan matn turlari ham aynan dialoglardir. Bunday darsliklarning dastlabki va ko'zga ko'rinadigan belgisi moddiy taqdimotning kamaytirilishidir. Grammatik-tarjima-metodi asosida yozilgan darsliklar uchun magnitafonning zaruriyati bo'lmagan. Ularda autentik intonatsiya na'munasini eshitish taklif etilmagan. Audiolingval/visual metodlar darsliklarida esa qo'shimcha ravishda ish kitobi, kasseta, rasmlar doskasi va tilni o'rganishga yordam beruvchi filmlar bo'lgan.

Buning asosida chet tili darslarining ilm-fan bilan aloqadorlikdagi rivojlanishi ham turadi. Bu bir tomondan bo'lsa, ikkinchi tomondan 60-yillarda texnika ham yuksak taraqqiyotga erisha boshlagan.

Substitutsiya – tasvirlangan tilshunoslik uchun asosiy analiz vositasi bo'lgan. Biror so'zni almashtirish bilan uning xususiyatlarini boshqa so'zlar bilan taqqoslab, aniqlashtirish mumkin.

Quyida oddiy bir misol:

Das Haus/ besteht/ aus / rotem/Sandstein.

Bu yerda **besteht** so'zini **ist** bilan almashtirish mumkin. Ammo **Die Mauer** bilan emas. Bu shuni bildiradiki, besteht va ist bir so'z turkumiga tegishlidir. **Das Haus** so'zini esa **das Denkmal** so'zi bilan almashtirishi mumkin. Ammo "rot" bilan emas va boshqalar.

Shu sababdan ham bunday darsliklarda shunga o`xshash mashq turlarini tez-tez uchratish mumkin. Ba'zan esa faqat shunday mashq turlaridan foydalanilgan. 30-yillardan psixologik boshlab tadqiqotlar ham o`zining alohida ahamiyatiga ega bo`la boshladi, hamda til o`rganishni faqatgina qoidani yod olish orqali o`zlashtirib bo`lmasligi, balki til o`rganishda taqlid, umumiyashtirish va farqlashdan foydalanish haqidagi nuqtai nazar shakllanadi.

Tilni dastlabki o`zlashtirishdan oddiy na'muna:

Yosh bola hayotining dastlabki yilida bir qator hali biz farqlashimizning ilojisi bo`lmagan tovushlarni chiqaradi. Bu tovushlarning ko`pi o`smirlikda bo`lmaydi. Ular faqat bir marta yuzaga keladi va keyinchalik unutib yuboriladi. Ammo ma'lum bir harflar kombinatsiyasi, masala, mamama. Keyin ham qo`llaniladi. Bilamizki, bu harflar kombinatsiyasi bola tomonidan onaga nisbatan qo`llaniladi. Bola bu harflar kombinatsiyasini talaffuz qilganda ko`proq ko`proq mukofotlanadi. (yoki erkalatiladi) shuning uchun ham bu harflar kombinatsiyasi bolalar tomonidan boshqa tovushlarga, so`zlarga qaraganda ko`proq qo`llaniladi. Ular ijobiy ravishda o`sib boradi. Shu asnoda o`zaro aloqadorlik (tovush+kuchayish) paydo bo`la boshlaydi.

Bu nazariya ham, ya'ni behaviorizm chet til darslari uchun ma'lum bir izchillikka ega. Qoidani ko`zdan kechirish, uni o`rganish va o`zlashtirish hamda qo`llash bilan shug`ullanish kerak emas. Balki qo`zg`atish reaksiyasi zanjirini til hodisalari bilan bog`lash kerak. Bu shuni bildiradiki, o`qituvchi yoki turli media vositalari o`quvchilar javob qaytarishi uchun impuls berishi kerak. Impuls rasmlardan, magnitafonda eshittiriladigan gaplardan va akustik signallardan tashkil topishi mumkin. Qo`zg`atish reaksiyasi orqali bo`g`lanishni ma'lum bir intervalda kuchaytirib borishi kerak. Til o`rganishda omilkorlik shug`ullanish dasturi orqali amalgam oshiriladi va mustahkamlanadi. Til o`rganishda qoida jihozlariga zaruriyat qolmaydi. Xatto u qiyinchilik tug`dirishi ham mumkin.

Audiolingval/audiovisual metodi asosida tashkillangan chet til darslarida o`quvchilar murakkab qoidalar va misollarsiz ham tilni tez o`zlashtirishlari mumkin bo`ladi. Bu ular gaplarni taqlidan o`rganadilar deganidir.

Kitobdagi grammatika=kalladagi grammatika – grammatikani qo`shimcha adabiyotlardan foydalanib o`rganish.

Grammatikani A, B va C qismlarga bo`lganimiz haqida yana bir bor o`ylab ko`ring. O`sha sahifani yana bir bor o`qib chiqing. Biz bu bobda aynan yana o`sha grammatikalardan biri bo`lgan B grammatika hususid fikr yuritamiz. Qo`shimcha adabiyotlardagi Grammatik qoidalar va strukturalarning tasvirlanishi.

Topshiriq.

Ularniqaytib o`qishdan oldin. quyidagi savollarga mustaqil ravishda javob berishga urunib ko`ring.

- Aniq bir grammatika uchun yozilgan kitobdan foydalanasizmi? Nimaga?
- O`quvchilaringiz ham biron Grammatik kitobdan foydalanishadimi? Nimaga? U qaysi grammatika?
- Dars jarayonida grammatikani qo`llashni zarur deb hisoblaysizmi?
- O`quvchilaringizda ham grammatika bo`lishi shartmi?

Biz bu bobda sizlardan ushbu savollar haqida yana bir bor o`ylab ko`rishni
tklif qilmoqchimiz. Biz quyida dars jarayonida grammatikadan foydalanish
zaruriyati haqidagi bir necha sahifalarni keltirib o`tmoqchimiz. Elke Wissner
Kurzava (Zimmermann/Wissner Kurzava 1985, 71) bir tajriba o`tkazgan. U
tajribasi davomida quyidagilarga aniqlik kiritgan. Grammatikani tasvirlanishida
o`quvchilarga yoqmaydigan holatlar mavjudmi? Ular qaysilar? Buni aniqlash
uchun u o`quvchilarning yon daftarlarini ko`zdan kechirgan. Natijada esa
o`quvchilarning qanday muammolardan shikoyat qilishlariga oydinlik kiritilgan.
Ular asosan quyidagi muammo va qiyinchiliklardan shikoyat qilganlar.

- mufassal bo`lmagan qoidalar tasnifi
- qiyin bo`lgan qoidalar tasnifi.
- Mavhum tilli, ko`plab notanish so`zlar bo`lgan qoidalar tasnifi.
- Birgina qoidaning o`zida ko`p detallar bo`lgan qoidalar tasnifi.
- Yetarli misollarning keltirilmasligi.
- Juda ham zerikarli, qiziqarli bo`lmagan qoidalar tasnifi.

Bunday va bunga o`xshash muammolar har bir til o`rganuvchi grammatikani
o`rganish jarayonida uchraydigan muammolardir. Ular yo ko`p, yo kam bo`lishi
ham mumkin. Aynan shunday muammolar o`quvchilarni mustaqil ravishda
grammatika bilan ishlashlarida to`siq bo`lib qoladi. Buning uchun leksikani
qo`llashni o`rgangandek, dars jarayonida grammatikani ham o`rganishi kerak.
Bunda til o`rganuvchilar qaysi Grammatik mavzu ko`proq, qaysi grammatik
mavzu kamroq muammo tug`dirayotganini baholay olishi talab qilinadi.

Hamma Grammatik mavzular ham til o`rganuvchilar uchun mos tushmaydi. Ishonasizmi, Grammatik mavzuni sarlavhasiz va hech qanday material yo`q.

Грамматикани ўйин шаклида ўрганиш – машқ қилиш – амалда қўллаш.

Столингизга қайтиб ўтиринг! Кўзларингизни юминг ва мактаб даврларингиздаги чет тили дарсларини эсланг. Уларни ўтказишда қачон ўйинлардан фойдаланган эдингиз, яна бир бор ўйлаб кўрингчи, нима учун ўқитувчингиз бундай ўйинларни айнан чет тили дарсларида ўтказган?

Еҳтимол улар жуда ҳам кам бўлгандир, балки 2 ёки 3 та, балки умуман бўлмагандир.

Германияда бу мавзу аллақачон чет тил дидактикасига кириб келган ва асосий мавзулардан бирига айланган. Аммо ҳар бир мамлакатнинг ўзига хос одатлари ва ўрганиш анъаналари мавжуд. Агар немис тилини чет тили сифатида ўрганадиган талабалар ва уни ўргатувчи ўқитувчилардан „ўйин &грамматика“ мавзуси ҳақидаги фикрларини сўрасак, кўпинча улардан қуйидагича фикрларни эшитамиз:

- „бизда мактабда ўйналмайди.....“
- „Грамматикада ўйинбилан нима ҳам қилиш мумкин...“
- “Менинг ўқувчиларим жуда ҳам кўп, шунинг учун дарсда ўйин ўйнашимизнинг имкони йўқ,.....”
- „ўқувчилар ишлашлари керак, ўз вақтларини ўйин билан бекор ўтказишлари эмас...“
- „Мени ўқувчиларим ўйнашни хохламайдилар, улар бирор нарсани ўрганишни истайдилар.“.

Сўнггийилларда эса кўплаб „Чет тил дарсларида ўйинлар“ мавзусида иншолар ва ўйин тўпламлари яратилди. Шундай бўлишига қарамай, режалаштирилган ўрганишга мўлжалланган дарс ўйинлари бундан мустасно. Дарсликларда ҳам баъзи-баъзида ўйин машқлари бўлади.

Бундан ҳам кам учрагани эса грамматика мазвусига багишланган ўйинлар, яъни грамматик ўйинлардир.

Биз сизларга дарсларингиз давомида ўйинли машқларни кўпайтиришга ва грамматик билимларни бошқача йўллар ёрдамида мустаҳкамлашга, улар билан турли машқлар бажаришга ва амалда қўллашда яхши кайфият уйғотишга ёрдам беришини хоҳлаймиз. Биз бунинг учун шунчаки турли ўйинларни тасвирлаб бериш ниятида эмасмиз, бу нарсаларни ўйинлар тўпламида етарли даражада ёки камроқ бўлса ҳам баён этилган. Бунда чет тили дарсларида ўйиннинг фақатгина назарий тизимлаштирилиши ҳақида гап кетмайди, яъни улар амалий чет тил дарсларига ҳеч қандай фойда келтирмайди.

Биз бунинг ўрнига 6 хил ўйиннинг тамойилларини тасвирлаб бермоқчимиз. Булар фақат бир грамматик тузилишга эга бўлган ва маълум бир мавзу доирасида қўллаш мумкин бўлган ўйин тамойиллари эмас. Сиз уларни ўз мавзуйингизга ва ўргатаётган гуруҳингизнинг ўзига ҳос хусусиятларига қараб турли вариантларда қўллашингиз мумкин, уларни ўз иш услубингиз ва шароитингизга мослаштиришингиз мумкин. Бу ҳаракатингиз билан “Машқ” ва “ўйин” ўртасидаги қарама-қаршилиқни йўқотган бўласиз.

Аввало ишни ўйинлар тамойилларини тасвирлаб беришдан бошлаймиз, чунки ўйинлар билан танишиб чиқиш энг кўп эътибор талаб қиладиган мавзу ҳисобланади. Дарсда ўйинларан фойдаланиш учун ўйин тузилишини ўқиб чиқиш ва тушуниш етарлимас¹⁴. Ўйин мазмуни ўқиб ва тушуниш бир нарсаси бўлса, ўйинларни ўйнаб кўриш – бу умуман бошқа нарсаси. Шунинг учун ўйинларни иложи борида фақат ўқиб билан чекланиб қолмасдан, уларни ўз дарсларимизда қўллаш тўғрисида бош қотиришимиз керак бўлади. Ўйинларни дарс жараёнида қўллашга алоҳида эътибор билан ёндашиш керак, бундан ҳам муҳими эса ўйнаб кўриш керак.

Наъмуна: Феъллар излаш.

Кўплаб немис тилидаги грамматик машқларда ва бошқа кўп тилларда ҳам турли замонни ифодалайдиган ва турли шахс-сонларда тусланадиган феъл шакллари мавжуд.

Одатда эса бундай мавзулар дарсликларда берилган тизимлар, жадваллар ёрдамида ўрганиш билан чекланиб қолинади.

Бундай грамматик жадвалларни ҳар қандай дарсликларда учратиш мумкин, қуйидаги мисол эса “Deutsch/Aktiv” дарслигидан¹⁵:

4. KONJUGATION: Perfekt		
4.1. Perfekt mit “haben”		
Singular		
1. Person	ich habe	gertunken
	du hast	gegessen
2. Person	Sie haben	gesungn
	er	geschrieben
3. Person	sie hat	gestritten
	es	geholffen
Plural		gesprochen
1. Person	wir haben	genommen
2. Person	ihr habt	gelesen
3. Person	sie haben	gefragt
		gesagt
		gekauft

Neuner (1979), 124.

Бу грамматик жадвал билан ишлаш дарс жараёнида қуйидагича кечади (еҳтимол):

Ўқитувчи феъл шаклларини овоз чиқариб ўқиб беради ва бир ёки бир неча бошқа ўқувчидан сўрайди:

Ўқитувчи: „gehen“

Ўқувчи: „Ҳмм... .. ging.... gegangen.“

Ўқитувчи: „Richtig/ тўғри.“

Нима деб ўйлайсиз, бу ҳолатда ўқувчилар ва ўқитувчи қандай муаммоларга дуч келишлари мумкин? Бундай жараёнда, яъни ўқитувчи ўз она тилисида қонидани баён қилиб берганида ва орттирма ёки қиёсий даражадаги сўзларни, феълларнинг турли шахс-сондаги шаклларини ёлғиз ўқувчидан сўраганда, ҳаммадан ҳам ўқитувчининг ўзига кўп ишқилишга тўғри келади, диалоглар давомийлигида бир ўқувчи ва ўқитувчи бўлишига сабаб бўлади. Бунда ўқувчиларга айнан жавоб бериш дақиқасидагина эътиборли бўлиш кифоя қилади. Битта ўқувчи фақат бир мартагина жавоб бериши керак бўлади. Ўқувчиларнинг фаоллиги иложи бориша шу саволга жавоб бериш учунгина бўлиб қолади. Бу эса уларнинг ўқитувчининг кўзига кўринмасликка ва жавоб бермасликка ундайди. Агар ўқитувчи ўқувчилардан бундай машқларни навбатма-навбат, яъни қатор бўйича сўрай бошласа, ўқувчилар тезлик билан ўзларига қайси сўз ёки гап тўғри келишини ҳисоблаб чиқадилар, қайси саволга жавоб беришларини билиб, шунга тайёргарлик кўрадилар. Бунда уларнинг аввал эгаллаган билимлари релятив механик тарзда ёдларидан кўтарилиб кетади. Шунинг учун ўқувчиларни аввал эгаллаган билимларини эсларига тез-тез солиб туриш ва уларни қайта-қайта қўллашга ундаш керак бўлади. Акс ҳолда ўқувчилар ўқитувчининг саволигагина жавоб қайтарадилар.

Баён этиш ва сўровнинг бундай моделини қуйидаги камчиликлари мавжуд ва улар нисбатан кўп дея баҳоланади:

- Ўқитувчи доимо дарс марказида туради;
- Дарс давомидаги алоқалар фақат бир ўқувчи ва ўқитувчи томонидан амалга оширилади;
- Хатоларни назорат қилиш ва тўғрилаш фақат ўқитувчи томонидан амалга оширилади;

- Ўқувчилар амалий жиҳатдан чекланиб қоладилар ва ўқитувчи ҳаракатларига жавобреаксиясини билдирадилар;
- Топширикни тўлдириш ва бойитиш учун умуман ҳеч ким ҳаракат қилмайди;
- Ўқувчиларнинг фақат кичик бир гуруҳигина нимадир “айта” олишлари мумкин, қолганлари эса индамай дарсни тугатадилар.

Бунинг учун алтернатив, яъни яна бир йўлни танлаш имконияти ҳам мавжуд. Бу усул билан ўқувчиларга грамматик қоида ни тушунтириб ўтиришнинг ўрнига ўйин жараёнида ўз-ўзидан грамматик қоида ҳақидаги тушунча шакллантирилади.

Феълларни излаш.

Нима деб ўйлайсиз, бу ҳолатда ўқувчилар ва ўқитувчи қандай муаммоларга дуч келишлари мумкин? Бундай жараёнда, яъни ўқитувчи ўз она тилисида қоида ни баён қилиб берганида ва орттирма ёки қиёсий даражадаги сўзларни, феълларнинг турли шахс-сондаги шакллари ни ёлғиз ўқувчидан сўраганда, ҳаммадан ҳам ўқитувчининг ўзига кўп ишқилишга тўғри келади, диалоглар давомийлигида бир ўқувчи ва ўқитувчи бўлишига сабаб бўлади. Бунда ўқувчиларга айнан жавоб бериш дақиқасидаги на эътиборли бўлиш кифоя қилади. Битта ўқувчи фақат бир мартаги на жавоб бериши керак бўлади. Ўқувчиларнинг фаоллиги иложи бори ча шу саволга жавоб бериш учунги на бўлиб қолади. Бу э на уларнинг ўқитувчининг кўзига кўринмасликка ва жавоб бермасликка ундайди. Агар ўқитувчи ўқувчилардан бундай машқларни навбатма-навбат, яъни қатор бўйича сўрай бошласа, ўқувчилар тезлик билан ўзларига қайси сўз ёки гап тўғри келишини ҳисоблаб чиқади лар, қайси саволга жавоб беришларини билиб, шунга тайёргарлик кўради лар. Бунда уларнинг аввал эгаллаган билимлари релатив механик тарзда ёдларидан кўтарилиб кетади. Шунинг учун ўқувчиларни аввал эгаллаган билимларини эсларига тез-тез солиб туриш ва уларни қайта-қайта қўллашга ундаш керак бўлади. Акс ҳолда ўқувчилар ўқитувчининг саволигаги на жавоб қайтаради лар¹⁶.

Баён этиш ва сўровнинг бундай моделини қуйидаги камчиликлари мавжуд ва улар нисбатан кўп дея баҳоланади:

- Ўқитувчи доимо дарс марказида туради;
- Дарс давомидаги алоқалар фақат бир ўқувчи ва ўқитувчи томонидан амалга оширилади;
- Хатоларни назорат қилиш ва тўғрилаш фақат ўқитувчи томонидан амалга оширилади;
- Ўқувчилар амалий жиҳатдан чекланиб қоладилар ва ўқитувчи ҳаракатларига жавобреаксиясини билдирадилар;
- Топширикни тўлдириш ва бойитиш учун умуман ҳеч ким ҳаракат қилмайди;
- Ўқувчиларнинг фақат кичик бир гуруҳигина нимадир “айта” олишлари мумкин, қолганлари эса индамай дарсни тугатадилар.

Бунинг учун алтернатив, яъни яна бир йўлни танлаш имконияти ҳам мавжуд. Бу усул билан ўқувчиларга грамматик қоида ни тушунтириб ўтиришнинг ўрнига ўйин жараёнида ўз-ўзидан грамматик қоида ҳақидаги тушунча шакллантирилади.

Феълларни излаш. ¹⁷

O	G	X	S	Y	L	W	A	R	O
H	E	K	C	G	A	B	L	I	H
E	T	A	H	A	U	X	P	E	I
I	R	M	R	N	F	A	N	D	E
S	E	M	I	O	E	O	V	R	L
S	T	L	E	P	N	L	W	U	T
E	E	F	B	L	I	E	B	C	B
N	N	E	H	M	E	N	P	U	U
A	N	Z	I	E	H	E	N	E	N
R	E	D	E	N	Q	R	A	N	T

Иштирокчилар учун бериладиган топшириқлар:

Бу топшириқни бажариш учун ўқувчилар жуфтликларда ишлашлари керак бўлади (масалан партадош шериги билан жуфтлик ҳосил қилиниши мумкин). Дастлаб улар юқоридаги топшириқдан излаб топган барча сўзларини ёзиб чиқадиладар. Нотўғри шаклларни эса тўлдирадиладар. Кейин эса қуйидаги топшириқни бажаришга киришадиладар.

Еҳтимол сизнинг бермоқчи бўлган топширигингиз бироз фарқ қилиши мумкин. Бу сизга бу топшириқ билан ишлашнинг фақат бир метод билангина чекланиб қолмаслигини кўрсатади.

Одатда эса қуйидагича жадвал билан ишлашимиз мумкин:

Infinitiv	Präteritum	Partizip, Perfekt
sein	war	gewesen
.....		

laufen
gab
fand
drucken
anziehen
getreten
schrieb
hielt
blieb
reden
kam
heißen
nehmen

Айнан шу нуқтада биз юқорида тасвирланган грамматик баён ва сўровнинг бу усулдан қандай фарқлари бор эканини аниқ тушуниб етамиз.

1. Иштирокчилар „бошқотирма“ни ечишлари керак. Бу ердаги сўзлардан эса матнларни ўқиш ва тузишда фойдаланишлари мумкин.

2. Ҳамма ўқувчилар бирваракайига иш билан банд бўладилар.
3. Ўқитувчида синфни айланиб, биров секин ишлаётган ўқувчиларга ёрдам бериш учун вақт бўлади.
4. Ўқувчилар ёлғиз ишламайдилар, балки камида икки иштирокчи бўлиб, бир вақтда топшириқни бажарадилар, бунда уларда бир-бирларига ёрдам бериш ва грамматика хусусида суҳбатлашиш имконияти пайдо бўлади.
5. Ўқувчилар жуфтликда ишлаганда, ўқитувчи уларнинг жўр бўлиб жавоб берганларида ҳар бир хатоларига катта эътибор бермайди.

Нима деб ўйлайсиз, бундай ўйин характериға янада кучли ургу бериш учун нималар қилиш керак? Бунга қўшимча фикрлар бера оласизми, бу хусусида ҳар бир ўқитувчи ўйлаб кўриши лозим бўлади.

Биз бу ҳақида ўйлаб кўриб, узоқ вақт жуфтликда ишлаш ҳам ўқувчиларға ҳалақит бериши мумкин деган хулосаға келдик. Шунинг учун ўқитувчи жуфтликлардаги ритмни ўзгартириб туриши керак. Бунинг учун иштирокчиларнинг бирини (Масалан, ўнг тарафда ўтирганини) кейинги жуфтликка ўтказиб туриши керак бўлади. Шунда ҳар бир жуфтликда янги шерик пайдо бўлади. Балки янги ташкилланган жуфтликнинг самараси илгариги жуфтликдан юқори бўлиши мумкин.

Бундай алмашинувининг фойдали тарафлари шундаки,

- Гуруҳға янгича руҳ киради;
- Бунда турли қобилиятға эға ўқувчилар алмашувда ўз ўринларини ўзгартирадилар. (Албатта, ҳар сафар бир шерик билан ўйнаш зерикарли бўлиши мумкин, зерикиш эса ишнинг самарасига салбий таъсир этади. Баъзи ўқувчиларни эса хатто жаҳлини чиқишиға сабаб бўлади. Баъзан билими кучли ўқувчилар билими етарли бўлмаган ўқувчи билан шерик бўлиб қолсалар, шундай ҳолатға тушиб қоладилар.) Алмашиниш ҳам ўйиннинг бир қисми ҳисобланади.¹⁸
- Ҳамма жуфтлик иложи бориға машқни қолган бошқа жуфтликлардан олдинроқ ва яхшироқ бажаришға ҳаракат қиладилар. Айнан мана шу

ҳолат уларнинг фаоллигини таъминлайди ва ўқувчиларга жўшқинлик бағишлайди.

- Маълум бир вақт оралигида ўринлар алмаштирилади ваҳар бир иштирокчида турли жуфтликларни таниб олиш имконияти юзага келади.

Балки жуфтликлардаги алмашинишларни кичик дарс хонасидаги кўп ўқувчилар билан ташкиллаш унчалик ҳам осон иш эмас деган фикр хаёлингиздан ўтаётган бўлса ажаб эмас.

Агар сиз синфингизни иккига бўлсангиз, бу топшириқни бажаришни мусобақа шаклида ўтказиш имконингиз ҳам бўлади. Қайси гуруҳ белгиланган вақт оралигида енг кўп сўзни топган бўлса, ўша гуруҳ голиб бўлади. Ўринларни алмаштириш ўрнига эса гуруҳнинг иштирокчилари бир неча дақиқа топшириқ билан икки-иккикиши бўлиб ишлашлари, вақт тугагач ўнг томонда ўтирган жуфтликка узатишлари керак. Бу билан ўйинлар янада тезкорроқ бўлади, бунда гуруҳларни билим даражаларини таққослаш мумкин бўлади.

Бундай тезкор “дарс”да ўқитувчининг машқлар бажарилишидаги фаоллиги кам бўлади. Кўчма маънода уни “дарсни бўлиб туради” дейиш мумкин, ўқитувчи керак бўлсагина, ёрдам беради, у вақт оралигида жараённинг боришидаги тинчлик ва хотиржамликни кузатиб бориши керак. Ўқитувчи ишни боришини кузатиб борар экан, ўқувчиларни кузатиб, баҳолаш босқичи учун тайёрланиб бориши ҳам мақсадга мувофиқ бўлади. Эҳтимол ўқувчиларга сифатдошнинг қандай ясалишини яна бир эслатиб қўйиш зарур бўлиб қолар, шунинг учун доска ҳам керак бўлади. Албатта бунда ўқувчиларнинг иш давомидаги интенсивликлари жуда йуқори бўлади. Улар топшириқни тез ва ажрата олган ҳолда ўқиб чиқишлари, ҳарфларнинг комбинатсиясига эътибор беришлари ва жуфтликдаги шериклари билан маслаҳатлашишлари керак бўлади.

Агар бу ўйин тамойилини иложи борица кўп вариантда қўллашни хоҳласангиз, айнан танлаган мавзуингизга мос келадиган аниқ бир вариантни

ўйлаб топиш жуда ҳам муҳим ҳисобланади. Шунинг учун биргаликда бу мисолимизни турли вариантларда номлашга ва вариантларни топишга ҳаракат қиламиз.

Масалан, яна бир вариантда грамматик муаммони қўйиш мумкин, бунда уни устида ишлаш керак бўлади. Бу ерда феъллар ва унинг турли замондаги шакллари берилган бўлади.

Ўқитувчи бу ўйин қаторини бошқа грамматик тушунчалар билан тўлдириши мумкин. Масалан, грамматика дарсининг турли жойларида кўп ёки оз қўлланадиган тушунчалар билан. Балки улар олмошлар, сифатдошлар, сифатлар ва бошқа сўз туркумлари ёки предлоглар бўлиши ҳам мумкин.

Яна бир марта мисолимизга қайтамиз. Кичик гуруҳларда, улар 10 та иштирокчилардан иборат бўлишади. Агар улар камроқ бўлса “ҳамкорликдаги иш” ўз натижасини бермаслиги мумкин; шунчаки иштирокчилар ўзаро ўринларини алмаштириши билан ташкилланади, шундан кейин улар турли шериклари билан топшириқ варақалари устида ишлашларига тўғри келади. Катта гуруҳларда бирга ишлаши керак бўлган иштирокчиларнинг сони эса 3 ёки 4 тага кўпайтирилиши мумкин. Кейин яна шароитга қараб 2 тадан, ҳар бир гуруҳдан қайта жўнатилади. Агарда сизга ўйин ёрдамида қандай хатоларни иложи борица камайтириш мақсади олдиндан белгилаб олинган бўлса, бу нарса ўйиннинг муваффиқиятли бўлишига ёрдам беради. Агар “феъллар излашда” ҳаммаси хато бажарилган бўлсачи?

Топшириқ варақасининг шаклида:

- Ёзилишуслубли, бундай ҳолда феъл шакллари бир қарашда таниб олиниши лозим.
- Отлардаги бош ва кичик ҳарфлар билан сўзларнинг ёзилиши, шунда топшириқ жуда енгил, осон бўлади. Ҳамма ҳарфлар бош ҳарфлар билан ёзилса ўқувчилардан талабчанлик талаб қилади.
- Бунда исталмаган сўзлар ҳам пайдо бўлади.

Мазмунан эса муаммо ва тузилиш яширин қолиб, улар бир маъноли қилиб тартибга солинмаган бўлиши мумкин.

Ўйинни олиб бориш учун яна бир неча кўрсатмалар мавжуд:

Ўзаро ҳамкорликда ишлаш, бу иштирокчиларнинг ҳақиқатан ҳам ўзаро биргаликда ишлашлари кераклигини билдаради ва ўзлари бирга ишлашни хошлаш ёки хохламасликларига қараб бу ҳолда уларга ишониб топширилмайди. Бу ҳар бир гуруҳга фақат биргина топшириқ варақаси берилади деганидир. Бу кўрсатма ҳамма ҳамкорликдаги ишлар учун ҳам умумий ҳисобланади. Иккинчи варақ эса, иш натижасини мустаҳкамлаш учун дарснинг охирида тарқатилиши мумкин. Агар ҳар бир иштирокчида биттадан топшириқ варақаси бўлса, ҳақиқий кўзланган мақсадга эришиш имконияти жуда ҳам кам бўлади. Ўйинли фаолиятлар, айниқса бу жараён, имкони борица бир “голиб” билан якунланади. Шунинг учун ҳар бир иштирокчига бир-биридан мураккаб ёки енгил топшириқ ёки карточка бермаслик керак.

Бу фаолиятга тезлик ва динамиклик олиб киришга ҳаракат қилинг. Бу нарсa зерикарли ўйиннинг боришига ўзгача руҳ бериши мумкин. Масалан бизнинг мисолимизда: ҳар сафар ўнг тарафдаги иштирокчи ўз ўрнини алмаштираётганда ҳамма қарсак чалиши ёки шунга ўхшаш ҳаракат қилиши мумкин. Буни соат кўрсаткичи бўйича алмашиниш кўринишида ҳам олиб бориш мумкин. Бу ҳаракат аммо ўйиннинг бошланишидан олдин барча иштирокчиларга маълум қилиниши керак.

Бу вазиятда ўқитувчи ўйин натижасини назорат қилиш ва қўшимча тайёрланиш вазифасини бажаради. Тўғри натижаларни назоратини енгиллатиш учун, у масалан мисолимизда яширинган мавжуд феълларнинг сонини маълум қилиши лозим (мисол учун 14 та). Ҳар бир айтилган сон, агар у кам ёки кўп бўлса, демак хато бўлади. Голиб бўлган гуруҳ феълларни тўлдирилган феъл шакллари билан ўқиб бериши мумкин. Хатолар ва саволлар шундан кейин гуруҳда ёки пленумда назорат қилиниб, текширилади. Бу нарсаларни дарс жараёнида қўллаб кўрганингизда, унинг

канчалик қизиқарли бўлишига ўзингиз гувоҳ бўласиз, чунки ўқувчиларнинг ёқтирмайдиган доимий дарсларидан ўйин билан ўтадиган дарслар ўзгача ҳисобланади. Бундай дарсда ҳадеб ўқитувчи сиз билган ва билмаган саволлар билан сизни жонингизга тегмайди.

Биз бу ерда фақат бир ўйиннигина муфассал тасвирлаб бердик ва энди кейинги ўйинг гоёларини ҳавола этишимиз мумкин. Аммо қўшимча вариантларни ёдингиздан чиқарманг.

2 – тамойил. Ноодатий сўзлашув ва ёзув сабаблари.

Наъмуна: Буни асосланг.

Анъанавий усул билан дарс олиб борилганида катта-катта гуруҳ иштирокчиларини бир дарс давомида ҳеч бўлмаса бир марта гапиртира олишни деярли имконияти йўқ. Биз биламизки, анъанавий дарс жараёнида ўқитувчининг нутқи кўп вақтни эгаллайди. Қуйида бутун бир гуруҳни бир йўла дарсга жалб қилиш учун мисол келтириб ўтилади.

Грамматик мавзу: Сабаб эргаш гап боғловчилари. (weil, da,denn,aber, um zu, ohne zu ва бошқалар).

“Deutsch konkret” дарслигида қуйидаги машқлар типи кўп учрайди:

Uebung 23. Konjunktionen ein und bilde langere Saetze.

1. nachdem, 2. damit. 3.obwohl.4, bevor, 5. als 6. waehrend. 7. um zu
8.ohne zu 9.weil 10.so lange 11.seit 12.wenn 13.als ob 14. sobald 15.bis

1. Die Prinzessin kuesste den Frosch, sie verwandelte sich in eine Froschfrau.
2. Ich werde jetzt immer freundlich zu meinem Lehrer sein. Ich will eine bessere Note bekommen.
3. Ich habe noch nie einen gruenen Hund gesehen. Ich weiss, dass sie rote Augen haben.
4. Zuerst schaut mansich die Grammatik an. Dann macht mal die Uebung...5.....¹⁹

Кўпинча ўқитувчиларнинг ҳаёлига қуйидагича гаплар келади: Ich habe Geld. Ich kaufe ein Auto. Ва бундай гапни ўқувчилар тўлдирадилар.wenn ich Geld habe, (dann) kaufe ich ein Auto. Бундай нарсаларнинг ҳаммаси вақтни бекор сарф қилишга сабаб бўлади. Фақат бир гуруҳ ўқувчиларга жавоб бериш навбати етиб келади ва бундай ҳолат кўпинча ўқувчиларга хузур багишламайди.

Биз эса қуйида бошқачароқ ўйин наъмунасини келтирмоқчимиз.

Ўқувчиларингизга бирон-бир ноодатий воқеани сўзлаб беринг.
Масалан:

Als ich heute am Bus sass, habe ich etwas seltsames beobachtet. Mir gegenueber sassen zwei Herren. Der eine schwarze Socken an, der andere weisse. Plotzlich zog jeder von ihnen eine Socke aus und tauschte sie mit dem anderen Mann. An der naechsten Haltestelle stiegen sie aus, und jeder hatte eine weisse und eine schwarze Socke an.²⁰

Иштирокчиларга рўй берган воқеани асослаш ёки баён қилиш учун турли гаплар ёзиши ҳақида топшириқ беринг. Бунда улар дастлаб мияларига қандай фикр ва гаплар келса, шуни ёзишлари мумкин. (5 ёки 10 та гап). Улар фойдаланиши учун доскага керакли грамматик структурани аввалдан ёзиб тайёрлаб қўйинг. Бунинг учун кўчма доска ҳам тайёрлаб қўйинг. Сўнгга ўқувчиларингизга гаплар тузишда улардан фойдаланишлари мумкинлигини айтинг.

Die Manner haben die Socken getauscht,(um zu, weil, damit, denn, obwohl).....

Ҳар бир иштирокчи ўз изоҳини ёзиб тугатгандан сўнг, 4 та гуруҳ тузинг. Энди ҳар бир гуруҳнинг иштирокчилари ўзаро ёзган изоҳ ва баёнларини ўқишлари мумкин. Ҳар бир гуруҳга барча изоҳлар орасида гуруҳнинг барча иштирокчиларга энг кўп манзур бўлган 3 тадан мисолни танлашлари ҳақида топшириқ беринг. Ҳар бир гуруҳ ўзи энг яхши деб топган бу мисолларини доскага ёзадилар. Бу ҳақида яна бир марта ўйлаб кўриш ҳам мумкин. Агар сиз бу ўйинни айнан ўзингизни гуруҳингиз учун танласангиз:

нимани ўзгартириш керак, нималарни янада кенгайтириш керак деган саволларга жавоб беришингизга тўғри келади. Чунки ҳар бир гуруҳнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд бўлиб, улар алоҳида ёндашишни талаб этади.

Яна бунинг учун сизда қуйидагича йўлларни танлаш имкони бўлади: Заруратга қараб бир структурага эга бўлган гапларнинг аниқ миқдорини беришга тўғри келади. Гуруҳ иштирокчилари берилган наъмунага қараб ўзларининг ҳикоясини ёзадилар. Улардан энг яхшиси танлаб олинади ва кейин ҳудди юқоридаги наъмунадагидек қайта ишланади.

Иштирокчилар изоҳларини карточкаларга ёзадилар. Кейин эса карточкалар тўпланиб, аралаштириб юборилади. Ҳар бир гуруҳ улардан учтадан тортиб олади. Кейин улардан фақат бири жойига қайтиб қўйилади. Карточкалар яна аралаштириб юборилади. Ҳар бир гуруҳ яна биттадан карточка тартадилар. Тўрттала гуруҳ ҳам энди қайси гап ҳаммаларига фикр ва гоё жиҳатидан мақбул бўлганини ҳал қиладилар.

Кўряпсизки, бу билан ўйин қисмларини турли йўллар билан вариантларини яратиш мумкин. (Қанча вақт бу ўйин ёрдамида ўргатилган мавзу ўрганувчиларнинг кўз олдида сақланишини эътиборга олиш ҳам муҳим.)

Бундай ўйинда ҳам барча ўқувчилар бир вақтнинг ўзида иштирок этадилар. Муҳими шундаки, асосий мақсад ўқувчилар орасидаги шахсий назоратнинг бўлишидир. Гуруҳ иштирокчилари ўз гуруҳларида гапларини ўқиб берар экан, албатта гапларини хатосиз бўлишига иштиёқлари жуда баланд бўлади, агар бунга эриша олсалар, бу айнан шу иштирокчининг тузган гапи доскага ёзилишини билдиради. Ўқитувчи бу вазиятда бошқарувчиликка яқин функцияни бажаради. У гуруҳдан-гуруҳга ўта бориб, уларнинг осойишта иш бажаришларини таъминлаши керак, агар бирон гуруҳга ёрдам керак бўлса, ёрдам кўрсатади.

Бунинг учун яна қуйидаги йўлларни қўлласа бўлади:

Бу борада ўйинга яна бироз ўзгартириш киритмоқчи бўлсангиз, ноодатий ҳикоянингўрнигабирон-бир қизиқарли предмет ёки расмни тасвирлашни ташкиллашингиз мумкин, Бунинг учун исталган предмет ёки расмни танлашингиз мумкин.

3 – ўйин тамойили. Ўйин сифатида хатоларни тўғрилаш.

Наъмуна: Хатоларнинг кўпайиб, кучайиб бориши.

Кўплаб иштирокчилар томонидан ёзилган гапларни текширишда ўқитувчиларнинг кўп хатоларни тўғрилашларига тўғри келади. Барча ўқитувчиларга бу вазият маълум. Албатта, бундай доимий хатолар хусусида ўқитувчи барча ўқувчилар билан суҳбатлашишига тўғри келади. Аммо бундай суҳбат кўп ўқувчиларга унчалик ҳам ёқавермайди, айниқсаўшаўқувчи мана шундай хатога йўл қўймаган бўлса. Биз ҳозир бу муаммони ҳалқилишни ажойиб бир ҳузурли ҳолга айлантирадиган вазият ҳақида тўхталиб ўтмоқчимиз.

Ўйин тасвири

Ўқитувчи топшириқ варагига тахминан 15 та гап ёзади. Булардан 5 таси тўғри, қолган 10 таси эса хато бўлади (иложи борича ўқувчиларнинг ўзлари йўл қўядиган оригинал хатолар бўлиши мақсадга мувофиқ). Сўнгра ўқитувчи ўқувчилардан ўзига бир ёрдамчи танлаб олади. Бу ўқувчи билан биргаликда “ Ким ошди ” савдосини ўтказишларини эълон қилади. Албатта ўйиннинг қоидаларини тушунтириб ўтади, шу билан бир қаторда ким ошди савдосида қўлланадиган баъзи қийин тушунчаларга алоҳида изоҳ бериб ўтади. (Масалан,буюраман, биринчидан/иккинчидан/учинчидан сингари)

Ҳар 2 ёки 3 ўқувчи топшириқ варагини олиб, гапларга қисқа муддат кўз югуртирадилар (масалан, 1 дақиқа). Кейин эса “ Ким ошди” савдоси бошланади. Ҳар бир гуруҳ ёки жуфтликка гапларни сотиб олиш учун 5000 немис маркаси берилади. Ҳар бир гапга энг камида 200 немис маркаси таклиф этиш мажбурийдир. Голиб ким бўлишини эса, тўғри гаплар учун энг юқори, кўп пул таклиф қилиш ва пулларни тўғри сарфлаш даражаси ҳал

килади. Бу нарса пулларни ақл билан сарфлаш керак эканлигини, хато гаплар учун эса энг паст миқдордаги пулни таклиф қилиш лозим эканлигини билдиради. Ўқитувчи биринчи гапни ўқиб эшиттиради (агар гап аслида хато бўлса, ўқитувчи иложи борида уни тўғридек ўқиб беришга ҳаракат қилиши керак), агар ўқувчилар гапни тўғри деб топсалар, улардан бу гап учун қанча пул таклиф қилишлари сўралади:

“ Шундай қилиб хонимлар ва жаноблар. Бугунги ким ошди савдосини бошлаймиз. Сиз ҳамма шартлар билан танишсиз. Биринчи гапни ўқиб билан савдомизни бошлаймиз. Диққат биринчи гап: **Koeln liegt an der Rhein.** Сўнгра ўқитувчи иштирокчилардан сўрайди: “ Ким бу сўз учун 200 немис маркаси таклиф қилади? ”. Ўйин шу тариқа давом этади.

Versteigerung – narx oshirish	Bezahlт – тўланди	Rest – қолдиқ
1. Gestern ich war im Kino (falsch/noto`g`ri)	800	4.200
2. Meine Katze ist lieb. (richtig/to`g`ri)	1.200	3.000
3. Warum hat du mich nicht angerufen.		
4.		

Агар ҳеч ким масалан 800 немис маркасидан ортиқ пулни таклиф қилишни истамаса, шунда гап ўша гуруҳ ёки жуфтликка сотилади. Иштирокчиларга гап тўғри ёки нотўғрилиги ўқиб эшиттирилади: гап хато. Тўғри жавоб эса қуйидагича: “Koeln liegt am Rhein”. Бу ерда гап грамматик жиҳатдан таҳлил қилинмасдан, кейинги гапларга навбат берилади. 4- гап, 7- гап ва ҳақозо. Шундай қилиб ҳамма гаплар сотиб тугатилади. Бу вазиятда

иштирокчилар бирин-кетин ўйинни тарк этадилар. Бу жуда ҳам муҳим, чунки бу ўйиннинг жозибадорлигига ҳисса қўшади, яъни хатога йўл қўйганларнинг, хато гапни тўғри деб қўп пул таклиф қилганларнинг

“Ким ошди” савдосидаги иштироклари қолганларга қараганда камроқ, қисқа бўлади.

Ўйин охирида эса “Ким ошди” савдосининг голиби аниқланади. Кимдир – ўқитувчи ёки яхши билимга эга бўлган иштирокчи, сотиб олаётган ўқувчи ва нархни белгилаб боради. Худди “Ким ошди” савдосининг иштирокчиларига “миннатдорчилик” билдирилгандай, ҳар бир гапга грамматик изоҳ беради. Бу изоҳларга тезлик билан ёндашиш керак.

Алтернативлар: ўқувчилар уйларида мустақил равишда “Ким ошди” савдосига тайёрланадилар ва нархни кўтаришни ўрганадилар.

Ҳар бир ўқувчи аукционга ёрдамчи сифатида иштирок этиши мумкин.

Бундай хатолар таҳлилининг ютуғи ўз қўлимизда: Синтаксис билан тезлик билан ишлаш, тезда гипотезалар яратиш ва ҳаққоний мотиватсия юрита олиши керак, чунки нима учун қиммат сотилган гап бундай хато бўлиши мумкин?

Сиз бундай аукционни 3 дан 1 қисми хато бўлган гаплар билан ҳам ўтказишингиз мумкин. Бунда албатта ўқувчиларингиз йўл қўядиган хатолардан фойдаланишга ҳаракат қилинг, чунки бундай хатолар хусусида ўқувчилар билан гаплашиш имконияти кўпроқ бўлади. Бунда грамматик хатоларни белгилаш лозимлигига эътиборингизни қаратинг. Бу нарса гап нима учун хато эканлигини тез таниб олиш имкониятини беради.

Der **Man** kaufte einen Hut. (фақат тўғри ёзувдаги хато)

Der Mann kaufte einem Hut. (Грамматик хато)

Хулоса ўрнида яна бир гоя: (япониялик немис тили ўқитувчиси тажрибасидан):

У “хатоларни таъмирлайдиган корхона” ташкил қилишни таклиф қилган. Бундай корхоналар синфдан 1 та тузилиши ёки гуруҳларга

ажратилиб 2-4 та бўлиши мумкин. Гуруҳларда хатолар тўғриланади ва ҳар бир гуруҳ нимани таъмирлаганини тушунтириб беради.

4 – ўйин тамойили. Маслаҳат ўйини/ Мусобақа.

Наъмуна: саволлар бериш, маслаҳат бериш.

“Ўқитувчининг савол бериши/Ўқувчининг жавоб бериши” – бу тил дарсларидаги энг стандарт жараёндир. Қоидага кўра ўқитувчи, ўқувчилар аллақачон биладиган саволларни сўрайди. Агар ўқувчиларга савол бериш топшириги юклатилса, бу масала уларни жуда ҳам чалғитиб қўяди. Улар бир зумда дарсликлардан саволлар қидиришга тушадилар ёки шунчаки ўқитувчи уларга берган саволларни ўйлай бошлайдилар. Хулоса қилиб айтиш мумкинки, деярли барча дарсликларда ўқувчиларни ўзаро саволлар беришга тортадиган эркин машқлар жуда ҳам кам.

Биз эса сизларга оддий ўйин мисолини келтирмоқчимиз: Бу машқли ўйин саволлар беришни ўрганишга ёрдам беради ва бу қобиятни ривожлантириш учун хизмат қилади. Сиз буни озгина вақтсарфлаб, тезлик билан ўрганиб олишингиз мумкин. Бунда албатта сўроқ олмошларини қўллаш ёки сўроқ сўзсиз сўроқ гаплар тузиш керак бўлади.

Бир иштирокчи бошқа иштирокчининг қулогига пичирлаб савол беради (аммо савол тасдиқ/инкор сўзлари билан жавоб бериладиган савол бўлмаслиги керак). Саволни эшитган ўқувчи эса баланд овозда жавоб бериши керак. Қолганлар эса биринчи иштирокчи қандай савол билан шеригига мурожаат қилганлигини тахмин қилиб кўрадилар. Масалан:

Frage/савол (аста): Was machst du am Wochenende?

Antwort/жавоб (баланд овозда): Ich spiele Fussball.

Бошқалар эса саволлар қуйидагича бўлган бўлиши мумкинлигини тахмин қиладилар:

Was machst du am liebsten?

Was ist dein Hobby?

Treibst du Sport?

Was machst du heute nachmittag?

Was machst du in der Freizeit? Va boshqalar.

Ва бошқалар.

Қўшимча сифатида айтадиган бўлсак, буни фақат катта гуруҳларда эмас кичик гуруҳларда ташкиллаб, ўйинни кичик гуруҳларда бирваракайига ўтказишлари ҳақида топшириқ беришингиз ҳам мумкин бўлади.

Алтернативлар: Ўқитувчи савол ва жавобларни алоҳида карточкаларга ёзиб чиқади ва ҳар бир ўқувчига заруратга қараб биттадан карточкани тортишни буюради. Кейин эса ўқувчилар хонада югура бошлайдилар. Ўз саволларига мос келувчи жавобни ёки жавобга мос келувчи саволларни излайдилар.

Агар баъзи жуфтликлар бу топшириқни жуда тез якунласалар қолган иштирокчиларга ёрдамчи бўлиб, ўйинни давом эттиришлари мумкин бўлади. Бу вазиятда улар баъзи савол турларини доскага ёзиб турсалар ҳам бўлади.


2 – наъмуна: Футбол ўйини сифатида гапларни тузиш ва уларни шакллга солиш.

Биз сизларга юқоридагига ўхшаш ўйинларни ёки бошқа ўйинларни ҳам мусобақа шаклида ўтказиш учун вариантлар борлигини эслаб қолишингизни таклиф қиламиз. Бу йўл билан ўйинлар тезкор ва қизиқарли бўлади.

Кўп ўқитувчилар синфларнинг катталиги туфайли ўқувчиларни ўйнатиш имконияти йўқ эканлигини айтадилар. Бу ўйин тамойилида эса гуруҳнинг катталиги ҳеч қандай аҳамиятга эга эмас.

Кўпинча бизга маълумки, ҳар қандай дарслик бўлишидан қатъий назар грамматик бўлим ёки боб учун маълум машқлар қатори келтирилган бўлади. Бундай машқлар эса одатда, аввалги эски дарсликлардан кўчириб олинган, ўша – ўша эски грамматик қонданинг баёни бўлади. Шундай қилиб дарслар ташкилланади, дарсликлар ёзилади. Аммо кўп ҳолларда бундай

машқлар ўқувчининг сўзбойлигига ва синфнинг айна пайтдаги ҳолатига тўғри келмайдиган бўлиши мумкин. Шунинг учун ҳам, ўйинлардан фойдаланишда машқларни синфнинг ўзидан келиб чиқиб танлашга ва ривожлантиришга ҳаракат қилиши керак. Қуйида биз сизга нималар керак бўлишини схема кўринишида тасвирлаб бермоқчимиз. Бу “ Ўйиннинг бориши” берилган мавзуга оид машқларни кўрсатади. Масалан: (Aktiv/Passiv).



Ўйин тасвири:

1. Гуруҳлар 10 тадан аниқ нисбатдаги гап (ёки мажҳул нисбатдаги гап)ларни ёзадилар, бу гаплар уларнинг ўзлари томонидан тўғри шаклга келтирса бўладиган даражада бўлиши керак.
2. А гуруҳнинг бир иштирокчиси бир гапни ўқиб эшиттиради. Масалан:
Mein Vater brachte meine Mutter zum Bahnhof.
2. Сўнгра эса:
 - а) Б гуруҳдан;

б) Ёки гуруҳнинг маълум бир иштирокчисидан саволга жавоб беришини сўрайди. Саволга тортилган ўқувчи ўша заҳотиёқ аниқ нисбатдаги гапнинг мажҳул нисбатдаги шаклини айтиши керак бўлади. Масалан: **Meine Mutter wurde von meinem vater zum Bahnhof gebracht.**

Агар жавоб тўғри бўлса, тўпни рақиб дарвозасига иргитади. Агар савол берган гуруҳнинг ўзи хато жавоб берадиган бўлса, унда ўз гуруҳини хавф-хатарга дучор қилган бўлади. Бу дегани энди “ тўп ” ўз гуруҳининг дарвозасидан жой олишини билдиради.

Алтернативлар:

- Бу билан ҳар сафар гуруҳнинг энг кучсиз иштирокчисини саволга жавоб беришга тортишнинг иложи бўлмайди, саволга жавоб бериш учун ҳар сафар янги ўқувчини танлаш керак бўлади.
- Қўшни иштирокчи (ўнг/ чап тарафдаги) унга ёрдам бериши мумкин бўлади.
- Иккала қўшни ҳам барабар ёрдам бериши мумкин.
- Муҳими ўйин жўшқинлигини йўқотмайди, ўйин жўшқинлиги ўйиннинг бошидан охиригача юқоридаражада бўлади.

Бу вазиятда ўқувчилар иложи борица рақиб жамоа учун мураккаб гапларни тузишга ҳаракат қилишади. Аммо улар бу гапларни ўзлари ҳам еча олишларига кучлари етишларини ҳисобга олишлари керак бўлади.

Юқорида келтирилган барча тамойиллардан хулоса қилиб, боб аввалида келтирилган ўқувчилар ва ўқитувчиларнинг фикрлари ҳақида яна бир ўйлаб кўринг. Нима деб ўйлайсиз, “ Грамматикан иўргатиш ва ўрганишда ўйинлардан фойдаланиб нималар қилиш мумкин экан? Улар қандай натижалар берар экан?”. Энди ўзингиз кўп матра гувоҳ бўлганингиз оддий сўров дарсларининг турли машқларни қамраб оладиган грамматик ўйинлардан қандай камчилик томонлари борлигин ўзингиз ҳам тушуниб етишингиз мумкин бўлади.


Агар юқоридаги барча айтиб ўтилган фикрларга диққат билан эътибор берган бўлсангиз, барча тасвирланган воқеа ва жараёнлар тамойиллари деярли материалсиз ҳисобланиб, ўқитувчидан ката тайёргарлик талаб қилмайди. Ўқитувчиларнинг ҳам уйда соатлаб ўтириб, бирон – бир ўйиннинг тайёрланишлари унчалик ҳам ҳақиқатга мос келмас эди.

Бу билан улар бир соатлик дарсда ўтказиладиган беш дақиқалик ўйин учун ўз вақтларининг кўп қисмини йўқотган бўлар эдилар. Аммо бир марта тайёрланилган ўйин жараёни билан кўп соатларда турли хил синфларда сермазмун ишлай олинса, бу билан бироз вақт тўғри сарфланган бўлади. Қуйида келтирилган ўйинимиз тамойилини шундай деб айтишимиз мумкин.

Карточкалар билан ўйинлар.

Намуна: Гаплар тузиш.

Гап учун карточкалар:



Дарснинг бошланишидаёқ ўқувчилар немис тилидаги “begreifen” сўзининг маъноларини тезкорлик билан тушуниб олишлари муҳим ҳисобланади. Немис тилидаги “begreifen” сўзи икки хил маънода ишлатилади. Verstehen /anfassen Бу сўзнинг иккала маъноси ҳам грамматика дарси учун жуда ҳам муҳим ҳисобланади. Карталар билан грамматика дарсида ишлаш эса бу “Grammatik anfassen” ҳисобланади.

Агар ўқувчилар сўз карталари ёзиб келишлари тайинланса, иложи борида гуруҳда кўп гаплар тузилади. Бу билан баъзи синфларни пассив

ҳолатдан чиқариш имкони бўлади. Бундан ташқари гаплар тузиш характери, ранглар ёрдамида ишлаш ва маълум бир қисмни алоҳидалаб кўрсатиш ҳамда уларни бир тартибга келтиришга ўргатиш учун ёрдам беради. “ Жокер” ни яшаш ўқувчилардан бўшлиқларни тўлдиришга креатив ёндашишни талаб қилади.

Бундай карточкаларни яшашда қуйидагилар таклиф қилинади:

- a) Ҳамма карточкалар ўқитувчининг шахсан ўзи томонидан тайёрланади;
- b) Дастлаб карточкаларнинг ҳаммаси ўқитувчининг ўзи томонидан тайёрланган бўлса, кейинг сафар эса ўйин карталари дарснинг бир қисми сифатида тайёрланиши мумкин.

Биринчи иш қадами қуйидагича кўринишга эга бўлиши мумкин:

1. Ишнинг бир хил бориши учун барча гуруҳлар бир хил карталар билан ишлайдилар.
2. Ўқитувчи гапнинг ҳар бир сўзини белгиланган рангли карточкага ёзади ва улар 4 тадан нусхада бўлади. (яъни 4 гуруҳ бараварига ишлаши учун)

Ёки:

3. У А4 форматдаги варақни саккиз ёки кўп катакка ажратади,
 - Бу варақни режалаштирилган машқларнинг миқдорига қараб нусхалайди,
 - Ҳар бир гап бўлаги учун турли хил белгиларни ўйлаб топади.
 - Тайёр бўлган топшириқни яна бир марта нусхалайди. (ҳар бир гуруҳ учун бир нусхадан)

Кейин уларни қаттиқ қоғозга елимлаб, қисмларга бўлиб чиқилади. Турли бажариладиган ишлар учун эса, масалан 4 та турли хил версиядаги карточкалар тайёрлайди, уларни ҳам бир хил рангли карточкаларга ёзиш

мумкин. Аммо гаплар тузилиши жиҳатидан бир хил бўлиши керак, сўз бойлиги эса турлича бўлиши мақсадга мувофиқ.

Масалан: Der/ Mann/ wollte/ ein/ Haus/ kaufen.

Die/ Frau/ musste/ die/ Lampe/ umtauschen.

Ўқитувчи ҳар бир гуруҳ учун фақат бир нусхадан топшириқ таркатади. Вазифа эса ҳар қандай вазиятда ҳам иложи борица тез ва иложи борица кўпроқ тўғри гаплар тузиш ҳисобланади. Ким ҳамма карточкаларни тўғри ишлата олган бўлса, ўша гуруҳ голиб бўлади. Ҳар бир гуруҳга голиб бўлиш имкониятини бериш учун, янги имконият билан ҳар бир гуруҳ уч мартадан бу ўйинни ўйнаши мумкин. Шунда 1 – гуруҳда ҳам, қолган гуруҳларда ҳам голиб бўлиш учун имконият бўлади. Машқнинг эффекти ҳам жуда яхши бўлади.

Ўқитувчининг карточкаларни тайёрлаш жараёнида ўқувчиларнинг эса сақлаб қолиш ва диққатини жамлаш хусусиятларини ривожлантиришни кўзлаб иш кўриши жуда ҳам муҳим. Масалан, карточкаларнинг ранги ва шаклига қараб ўқувчилар бу рангдаги ва шаклдаги сўзларни қайси ўринда келишини ҳам ўрганиб олишлари керак.

Масалан, ўқитувчига янги грамматик тузилишни тушунтириб бериш учун қуйидагича карточкалар нусхалари керак бўлади (бу ерда бир хил гап бўлаклари бир хил символ билан белгилаб қўйилган).

Gestern habe ich ein Eis gegessen.



Нихоят ўқувчиларга гаплар тузиш топшириги берилади. Бу йўл билан қоида ўқувчиларнинг онгида индуктив ҳолда шаклланади, яъни ўқитувчи энди қоидани бошидан охиригача қуруқ сўзлар билан баён қилишининг зарурати йўқ. Кейин эса она тилида ўқувчиларнинг буни қандай қилиб ўрганганлари ва нима учун гап бўлақларини гапда шундай кетма – кетликда жойлаштирганликлари ҳамда қандай қилиб бир қарорга келганликлари ҳақида суҳбатлашилади. Бундай ўрганиш йўлини муҳокама қилишнинг аҳамияти шундаки, келгуси сафар ўқувчилар бундай машқларни қоидалар баёнисиз ҳам онгли равишда бажара оладилар.

6 – ўйин тамойили: Memory , Ёдда сақлаш.

Яна бир бошқа, содда ва кўп ўқувчиларга таниш бўлган тамойил – бу ёдда сақлаш ўйинидир. Бу ерда икки ўзаро мос “карточкалар” нинг “ўйналиши” ҳақида гап боради.

“ Ёдда сақлаш” ўйининг тамойили жуда ҳам оддий. Тахминан 20 тача карточкалар тайёрланиши керак бўлади. Уларнинг ҳар икkitаси бир – бирига мос тушиши лозим. Масалан бирон – бир белги ва унга мос тушувчи немис ҳарфи. Карточкаларни қатор ҳолда парта устига териb чиқилади. Улар

тескари тарафи билан тўнтарилиб қўйилган бўлиши керак. Ўқувчилар бирин – кетин чиқиб карточкалардан тортиб ўйинни ўйнайдилар. Масалан, 1 – ўқувчи чиқиб, иккита карточкани тортади ва овоз чиқариб қолганларга ўқиб беради. Агар улар ўзаро мос тушса, ўзида олиб қолиши мумкин ва яна бир марта карточкадан тортиб кўриши мумкин. Агар улар ўзаро мос тушмаса қайтариб олган жойига қўяди. Кейин эса бирин – кетин қолган иштирокчилар ҳам чиқади. Жараёни кузатиб турган ўқувчилар мос тушмаган карточкаларда қандай гап ёки сўз ёзилганини эса сақлаб қолишлари талаб қилинади. Ким энг кўп тўғри жуфтликларни топган бўлса, ўша ўқувчи голиб бўлади.

Масалан:

Satz Ergaenzung/ гапни тўлдириш:

Ich komme aus

Berlin

Frage-Antwort /Савол – жавоб.

Wo liegt die Brille?

Auf dem Tisch

Umformungen/ шаклни ўзгартириш.

Peter liest den Brief.

Der Brief wird gelesen

Ўйин гуруҳларда ҳам ўтказилиши мумкин. Голиб (2 – ёки 3 -) гуруҳ кейинчалик синф жамоаси учун ўзаро мусобақалашилиши мумкин.

Бу ўйин тамойили ҳам турли вазиятларга ва мавзуларга қараб турли хил вариантларда қўлланилиши мумкин. Масалан, гапни тўлдириш ҳақидаги юқоридаги карточкаларимиз бунга маъносини аниқ очиб бериши мумкин. Ўқитувчи грамматик қоидадан дарсликдан олиб тушунтириб беришдан бошлашни ўрнига, ёдда сақлаш ўйини тамойилини баёнқилмаган ҳолда, карточкаларни тарқатиб, уларни тартибга келтиришни буюриши мумкин. (Бу жараёни Актив/Пассив мавзусида қўллаш ҳам мақсадга мувофиқ). Бу йўл билан ўқувчилар грамматик тамойиллар билан ўзлари мустақил

шугулладилар ва бу ҳақида мустақил фикр юритадилар. (Яъни қайси қоидага кўра улар ўзаро мос тушяпти). Бундай вазиятдан кейин ҳам уларнинг нима учун бундай тартибда гапларни ўзаро мослаганликлари ҳақида муҳокама ўтказишлари мумкин. Бундай содда йўл билан грамматик структураларни тез–тез ўргатиш мумкин. Бу шуни билдирадики, ўқувчилар ўзлари билмаган ҳолда нотаниш босқичлар билан ишлай бошлайдилар ва бу билан янги қоидаларни ўзлари ўрганадилар.

Айнан дарс жараёнидаги тизимлаштириш ҳақидаги кечган суҳбат – бу ўрганилган грамматик структуранинг тажриба сифатида шаклланишига ёрдам беради.

Ёдда сақлаш – карточкаларининг қўлланишидаги яна бир бошқа имконият – бу ўрганилган структуранинг устида ишлашда қўлланишидир.

Ёдда сақлаш таъмоилинининг ютуғи ҳам ўз қўлимизда бўлади: биргина карточканинг ҳар хил ўқилиш услуби, унинг яширин ҳолатда ўрганилиши, бу билан ўқувчиларнинг хотирасини кучайиши, бундан ташқари ишнинг тезкорлик талаб қилиши ва ҳар қандай ҳолатда ҳам ўқувчиларнинг дарс жараёнига киришиш натижаси юқори бўлади. Бу нарсани ўқитувчининг шунчаки чақириғи билан амалга ошириб бўлмайди. (агар ўқитувчи “марҳамат қилиб ҳурматли ўқувчилар буни кўп марта ўқиб чиқинг. ” деса ҳамма ўқувчилар ҳам бараварига жавоб реакциясини билдирмайдилар).

